

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA`LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**TISH QATORLARINING QISMAN NUQSONLARINI OLIB
QO`YILUVCHI PLASTINKALI PROTEZLAR
BILAN ORTOPEDIK DAVOLASH
(4,5,6-bo`lim)**

*Tibbiy oliy ta`lim muassasalari stomatologiya fakulteti
o`qituvchi va 4-kurs talabalari uchun o`quv-uslubiy qo`llanma*

**(Ukuv uslubi kullanma tish tish qatorlarini
olib qo`yiluvchi plastinkali protezlar
bilan ortopedik davolashga bagichlangan)**

TOSHKENT – 2008 y.
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA`LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

«T A S D I Q L A Y M A N»
O`zR SSV kadrlar va oliy o`quv
yurtlari bosh boshqarmasi boshlig`i
prof. _____ SH.E. ATAHANOV
2008y. «_____» _____

Kafedra: Ortopedik stomatologiya va ortodontiya

FAN: Ortopediya

M A V Z U:
TISH QATORLARINING QISMAN NUQSONLARINI OLIB
QO`YILUVCHI PLASTINKALI PROTEZLAR
BILAN ORTOPEDIK DAVOLASH
(4,5,6-bo`lim)

Tibbiy oliy ta`lim muassasalari stomatologiya fakulteti
o`qituvchi va 4-kurs talabalari uchun o`quv-uslubiy qo`llanma

TOSHKENT – 2008 y.

TUZUVCHILAR:

t.f.n. F.T. RAHMATULLAYEV
ortopedik stomatologiya va ortodontiya
kafedrasi katta o`qituvchisi.

TAQRIZCHILAR:

Uslubiy qo`llanma TTA MUH yig`ilishining 2008 yil «____» _____
№- ____sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi o`quv
ishlari bo`yicha prorektor,

prof. **O.R. TESHAYEV** _____
«____» _____ 2008 y.

Uslubiy qo`llanma Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ilmiy kengashining
2008 yil «____» _____ № ____ sonli bayonnomasi qarorlari
bilan tasdiqlangan.

MAVZU:

Olinadigan protezlarda qo'llaniladigan sun'iy tishlar, ularga qo'yiladigan talablar. Plastinkali tish protezlarining asosini shakllantirish. Qisman plastinkali tish protezlarni tayyorlashda anatomik, estetik ko'rsatgichlari va bemorning yoshiga qarab sun'iy tishlar tanlash mezonlari. Sun'iy tishlarni terish qoidalari mum asosli protez tuzilmasiga og'izda tekshirish.

Protezning mumli asosiga yakuniy shakl berish. Mumli protezni kyuvetaga gipslash turlari va uni baholash mezonlari. Mumli asosni plastmassaga almashtirishda bajariladigan ishlar (plastmassani qorish, yetiltirish, kyuvetaga joylash, presslash va hakoza). Plastmassani polimerizatsiya qoidasi. Plastmassani polimerizatsiya qilish qoidalari bo'zlganda kelib chiqadigan asoratlar. Protezni tozalash, ishlov berish, silliqdash, pardozlash. Olinadigan qisman plastinkali protezni bemor tish qatoriga moslashtirish va topshirish. Tayyorlangan protezning sifatiga klinik nutaiy nazardan baho berish. Olinadigan qisman plastinkali protezdan foydalanish qoidalari. Bemorni protezga ko'nikish jarayoni.

1. MASHG'ULOTNI O'TKAZISH JOYI VA JIHOZLANISHI.

- Ortopedik stomatologiya kafedrası va poliklinikasi,
- SHifokorning klinik honasi, stomatologik qurilma, bemor, tish protezlarining fantom ko'rgazmalari, stomatologik asbob uskunalar, qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezining mum asosli tuzilmasi. Sun'iy tishlar to'plami. Tayyor tish protezlari.
- Tish tayyorlash laboratoriyasi. Okklyudator, artiqo'lyator, kyuveta, bazis plastmassalari, shlefmator, metall frezlar, korborund toshlar. pardozlovchi, yaltiratuvchi homashyolar. Qattiq, yumshoq shetkalar.
- YAngi ahborot tehnologiyalar: Kompyuter, televizor, DVD, kodoskop, slaydoskop.
- Tekshiruv savollari, vaziyat masalalari. Interaktiv o'yinlar.

2.MASHG'ULOTLARNING DAVOMIYLIGI- 6,25 SOAT

3.MASHG'ULOTNING MAQSADLARI.

- Olib qo'yiladigan tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlarning turlari to'g'risida tushuncha berish.
- Sun'iy tishlarga qo'yiladigan talablarni tushuntirish.

- Sun'iy tishlarni terish qoidalarini to'g'risida bilim berish va terishni o'rgatish.
- Sun'iy tishlar terilgan mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish to'g'risida bilim berish.
- Mum asosli protez tuzilmasini, plastmassaga almashtirish jarayonining bosqichlarini o'rgatish.
- Plastmassani polimerizatsiya olib borish qoidalarini berish.
- Tayyor bo'lgan olib qo'yiluvchi tish proteziga baho berishni o'rgatish.
- Olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezini bemorga topshirish haqida bilim berish va o'rgatish.
- Olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlaridan foydalanish qoidalarini tushuntirish va o'rgatish.
- Bemorni olib qo'yiluvchi plastinkali tish proteziga ko'nikish jarayoni to'g'risida bilim berish.
- Olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarini taqishdan kelib chiqadigan protez stomatitlari to'g'risida bilim berish.
- Bunday tish protezlarini yamash va asosini qayta tiklash usullarini o'rgatish.

VAZIFALAR

Talaba bilishi kerak:

- Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlarning turlarini va ularga qo'yiladigan talablarni;
- Mum tuzilmalik olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarini plastmassaga almashtirish laborator bosqichlarini;
- Mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish vaqtida uchraydigan klinik, texnologik hato va kamchiliklarni aniqlashni;
- Tayyor bo'lgan olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezini bemorga topshirish qoidalarini;
- Bemorlarni qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezlariga ko'nikish jarayonidagi klinik holatlarni;
- Qisman olib qo'yiladigan plastinkali tish protezidan foydalanish qoidalarini.

Talaba qila olishi kerak:

Amaliy ko'nikmalarni bajarishi – sun'iy tishlarni tanlay olish (sun'iy tishlar plastmassadan, chinnidan, metallardan bo'lishini tanlay olish). Protezning mumli tuzilmasiga yakuniy ishlov bera olishni; protezni model bilan birgalikda kyuvetaga joylashtira olishni (gips yordamida), bazis plastmassasini tayyorlay olishni va kyuvetaga joylashtirishni; tayyor bo'lgan protezni kyuvetadan ajratib olishni; ishlov berib, silliqlashni va pardoqlab yaltiratishni; olib qo'yiladigan plastinkali tish proteziga (tayyor bo'lgandan keyin) sifatiga baho bera olishini bemorga protezni topshira olishni bajarishi kerak.

4. MAVZUNI ASOSLASH

Ortopedik stomatologiyada, tish qatorlarining qisman nuqsonlari keng tarqalgan o'zgarishlardan biri hisoblanadi. Bunday nuqsonlar turli hil protezlar yordamida ortopedik davolaniladi. Tish qatorlarining qisman nuqsonlarini olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezlari bilan davolash katta ahamiyatga egadir. Bunday nuqsonlarni o'z vaqtida davolash (protezlash), tish-jag` tizimidagi, kelib chiqishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarini oldini oladi. Olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarini tayyorlashda laborator bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Laborator bosqichlarni o'zlashtirish, talabalarning bemorga tayyor tish protezlarini taqishda katta ahamiyatga egadir. Protezlarning olib qo'yiladigan plastinkalik tuzilmalarini, turli nuqsonlarda qo'llanishini, klinik va laborator jixatidan asoslab berish, talabalarning bilim darajasini oshirishda katta ahamiyatga egadir.

5. FANLAR VA FAN ICHIDAGI BOG`LIQLIK

Quyidagi mavzuni o'qitish talabalarning normal anatomiya, gistologiya, normal fiziologiya va biofizika, ximiya, fizika fanlari bo'yicha olgan bilimlariga asoslanadi. Mashg'ulot davomida olgan bilimlarini ichki kasalliklar, umumiy jarroxlik, terapevtik stomatologiya, xirurgik stomatologiya, LOR kasalliklarida va boshqa klinik yo'nalishlardagi kafedralarida tish qatorlarida kelib chiqadigan o'zgarishlarni davolash kerak bo'ladi.

6. MASHG'ULOTNING MAZMUNI

6.1. NAZARIY QISM

SUN'IY TISHLARNI TANLASH VA TERISHNING KLINIK ME'ZONLARI

Tish qatorlarining nuqsonlarida yo'qotilgan tishlarni, olib qo'yiluvchi plastinkasimon protezlarga sun'iy tishlar o'rnatib, nuqson tiklanadi. Sun'iy tishlar plastmassadan, chinnidan, metallardan tayyorlanishi mumkin. Asosan plastmassali tishlar qo'llaniladi. Sun'iy tishlarni tanlashda asosi qolgan tishlarning shakliga, rangiga, yuz shakliga, teri rangiga, jinsiga, sochiga va ko'zning rangiga ahamiyat beriladi.

Sun'iy tishlarni terish ma'lum qoidalarga asoslangan holda olib borilishi kerak. Hamma tishlar (yuqori frontal tishlardan tashqari) alveolyar o'siqning o'rtasiga moslangan holda terilishi zarur. YUqorigi frontal tishlar esa alveolyar o'sig'ining cho'qqisiga nisbatan olinganda, tishlarning 2/3 qismi vestibulyar tomonga, 1/3 qismi esa tanglay tomonga surilgan bo'lishi kerak. Tishlarning bunday holatidagi joylashuvi chaynov bosimini to'g'ri taqsimlanishiga va protezning o'z joyidan noto'g'ri harakatlanishiga olib kelmaydi.

Bemorning yuqori jag` frontal tishlari bo'lmagan holda vrach markaziy okklyuziya holatini aniqlagan vaqtida: qoziq tishlar orasidagi masofa bo'yicha tishlarni joylashuvini aniqlaydi. Qo'lg'i chizig'i va okklyuzion bolishchalar o'rtasidagi masofaga qarab tishlarni balandligi aniqlanadi.

TISH QATORINING NUQSONIDA TISHLARNI

TERISH TISHNI MILKSIZ TERISHGA KO`RSATMA.

Avval mumli asos tayyorlanib, chegaralari modeldagi protez chegarasidan enliroq qilinadi. Mumli bazis yoyli sim bilan qotiriladi, tashqi qirrası alveolyar o'siqni o'rtasida turishi uchun erigan mum bilan asosga.

Sun'iy tishlarning chaynov sohasidagi do'mboqchalari atogonist tishlarning chuqurligiga tegib turadi. Forfor tishlarni terish nihoyatda ehtiyotkorlikni talaba qiladi, ularni tanaffus va bosimsiz tortish kerak, bo'lmasa ular yopilib sinib ketishi mumkin. CHarxlashda kromponlarni tegib ketishdan asrash kerak, bo'lmasa ular protez asosida tishlarni ushlab turolmaydi, barcha charxlangan tishlar alveolyar o'siqni o'rtasidagi mumli bolishchaga yopishtiriladi.

Tish yoyi shaklini va yuqori labni tushib ketmasligini ta'minlash maqsadida, yuqorigi jag'ning frontal tishlarini qalinligini 2/3 qismi alveolyar o'siq qirrasini vestibulyar tarafıga va 1/3 qismi orqa (tanglay) tarafga qo'yiladi. Tishlar terib bo'lgandan keyin ularni qarama-qarshi tishlar bilan jipsligini tekshiriladi, so'ng tishlar orasi mumda tishni bo'yin qismigacha tozalanadi, mumli asos va sun'iy milk shakllantiriladi.

MUM ASOSLI SUN'IY TISHLAR TERILGAN PROTEZ TUZILMASINI BEMORDA TEKSHIRIB KO`RISH HARAKAT BOSQICHLARI

Harakat bosqichlari	Ish uchun zarur vositalar	O`z-o`zini nazorat qilishi mezonı
Jag` model shakllarini ko`zdan kechiring	Artiqo`lyator yoki okklyudatorga jag` harakatini ko`rsatuvchi moslamalar. Gipslangan namu-na shakllari.	YAsama tish asosini tayyorlanadigan ishchi model shakllarini diqqat bilan ko`zdan kechirmoq darkor. Agarda model shaklda yoriqlar bo`lsa, yasama tish maydonining chegaralari noaniq va nuqsonlar bo`lsa, u yaroqsiz hisoblanadi.
Okklyudatorida turgan mum asosli protez tuzilmasini ko`zdan kechiring	Mum asosli protez. Suv solingan idish. Texnik shpatel.	Gipsli modelda mum asosli protezning sun'iy tishlarning zich jipslashib turishini va uning protez chegaralariga mosligiga e'tibor qilinadi. Tishlarning katta-kichikligiga, rangi shakliga e'tibor qilinadi. Pastki jag` harakatining moyilligiga to'sqinlik qiladigan tishlardagi do`ngliklarni, ayniqsa qoziq tish do'mboqlarini charxlab yuborish kerak. YUqorigi oldingi tishlar quyidagidek joylanishi kerak: tishning 2/3 qismi alveolyar o'siq o`rta qirrasidan tashqariga, 1/3 qismi esa

		ichkariga yo`nalgan bo`ladi. YOn qatordagi tishlar alveolyar o`siqning o`rtasida joylashishi kerak. Vestibulyar va tanglay tomondagi chaynov yuzalarining zich tegib turishi baholanadi.
Ilgichning tuzilishi va uning yasama tishda to`g`ri joylaganligini ko`zdan kechiring.	Okklyudatorga o`rnatilgan mum yasama tish bilan birga gipsli namuna shakllar.	Ilgich yelkasi lab va lunj tarafidan tishni qamrab, ekvator bilan milk orasida turadi. Ilgich yelkasi tish yuzasiga maksimal tegib turadi. Ilgich o`sig`i yo`qotilgan tish alveolyar toji bo`yicha sun`iy tishlar ostida joylashadi. Ilgich o`simtasining noto`g`ri joylanishi yasama tishning sinishiga olib keladi.
Og`iz bo`shlig`ida yasama tish tu`zilishini tekshirib ko`ring.	Artiqo`lyator va okklyudator o`rnatilgan namuna shakllar. Mum asosni tishlar terilgan yasama tish holati, sovuq suv solingan idish. Paxta, spirt, shpatel.	Mum asosni va tishlarni N_2O_2 yoki spirt bilan artiladi. CHap qo`lda stomatologik oyna bilan o`ng lunj to`qimasini chetga suriladi. O`ng qo`lda mum to`zilishidagi yasama tishni o`ngdan chapga olib og`iz bo`shlig`iga kiritiladi va qo`yiladi (joylanadi).
Ilgich chizig`i to`g`riligining va ilgichning joylanishini ko`zdan kechiring.	Artiqo`lyator va okklyudator o`rnatilgan namuna shakllar. Mum asosni tishlar terilgan yasama tish holati, sovuq suv solingan idish. Paxta, spirt, shpatel.	Ilgich yelkasi tishning vestibulyar yuzasiga tish yuzasiga maksimal zich tegib turishi kerak. YAsama tish siltanganda shu tomonga ilgich moyil harakat qilishi kerak. Og`iz bo`shlig`i shilliq qavatiga zarar yetkazmasligi uchun ilgich yelkasiga dumaloqlangan va pardoz berilgan bo`lishi kerak.
YAsama tishni muayyan holatda turg`un tutib turilishini		Turg`unligiga to`g`ri ilgich chizigini tanlay olish ta`sir etadi. YUqori jag` uchun diogonal joylashgan juda qo`laydir. Pastki jag`da transverdal. Butun mum asos chegarasi

ko`zdan kechiring. YAsama tish kundogiga (maydoniga) yasama tish- ning zich yon- doshishini kuzo`zdan kechiring.		buylab oyna yordamida yasama tishni, yasa- ma tish kundogi to`qimasiga zich yondoshib turishi kuzuriladi.
Markaziy jipslashuv hola- ti to`g`ri aniqlanganligini ko`zdan kechiring. Tish- larning chaynov yuzalarining zich tegib turi- shini ko`zdan kechiring.		Anatomo-fiziologik, so`zlatish sinovi yordamida markaziy jipslashuv holatini va alveolyar oraliqdagi balandlik to`g`riligini aniqlanadi. Tish texnigi shpateli va oyna yordamida tish- lar orasidagi munosabat (bir-biriga tegib tu- rish holati) tekshiriladi. Oyna yordamida lunj yumshoq to`qimalari chetga surilib, shpatel yordamida tishlar bir- biriga tegib turish holatidan ayirib ko`riladi. Bu vaqtda bemordan tishlarini zich bir biriga tegib turish (holatidan) ni iltimos qilinadi. Agarda tishlar orasida, bo`shliq bo`lsa bu vaqtda shpatel qizdirilib namuna shaklida sun`iy tishlar qaytadan teriladi (qo`yiladi).

MUM ASOSLI PROTEZ TUZILMASINI BEMORDA TEKSHIRISHDA ANIQLANADIGAN HATO VA KAMCHILIKLAR

Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarini plastmassa asosga aylantirishdan oldin, uning mum tuzilmasi bemorda tekshirib ko`rilishi kerak. Chunki bu bosqichda ayrim hatoliklar va kamchiliklar aniqlanishi mumkin. Bu hato va kamchiliklar ikki hil bo`ladi. Bular shifokor tomonidan hamda tish texnigi tomonida yuzaga kelgan bo`lishi mumkin.

SHifokor-stomatolog tomonidan quyidagi hatoliklar kelib chiqishi mumkin:

- Tishlar rangi, o`lchami va shaklining noto`g`ri tanlanishi
- Markaziy okklyuziyani aniqlashdagi hatoliklar
- Alveolyararo balandlikni aniqlashdagi hatoliklar
- Qolip olish jarayonidagi hatoliklar

Tish texnigi hatolariga quyidagilar kiradi:

- Sun'iy tishlarni noto'g'ri terish
- Tishda klammerlarni noto'g'ri joylashtirish
- Modellarni okklyudator yoki artiqo'lyatarga noto'g'ri gipslash.

SHifokor hatolari:

1. Alveolyararo balandlikning pasayishi.

Bemorni tashqi tomondan ko'rilganda uning yuzida qarilik belgilari, yuzning pastki 1/3 qismi pasaygan, burun-lab burmalari ifodalangan, dahan oldinga chiqqan. Labning qizil hoshiyasi kamaygan. Bu hatoni bartaraf etish uchun mumli plastinka olinadi, qizdiriladi va pastki jag'ning sun'iy tishlariga qo'yilib, bemorda tishlarni jipslashtirish suralgan holda baladlik yangitdan aniqlaniladi.

2. Alveolyararo balandlikning baland bo'lib qolishi.

Bemorni tashqi tomondan kurilganda yuzning yumshoq to'qimalari tarangligi, burun-lab burmalarining silliqlashganligi ko'rinadi. Og'iz bo'shlig'ida jipslashuv aniqlanadi. Tishlarning zich fissur do'mboqchi jipslashuv aniqlanadi.

Bu hatoni bartaraf etish uchun, tehnik yangi tishlov bolishchali mumni tayyorlaydi va qaytadan alveolyararo balandlik aniqlaniladi. Jag'lar holati markaziy okklyuziyada mahkamlanadi. Agar yuqori jag' tishlari to'g'ri terilgan bo'lsa, tishlov bolishchasi faqat pastki jag' uchun tayyorlanadi.

3. Pastki jag'ning oldinga chiqishi (siljishi).

Og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirganda, og'iz to'g'ri yopilganda tish qatorlarining prognatik munosabati hosil bo'ladi. Bu hatoni bartaraf etish uchun okklyuzion holatida aniqlash va fiksatsiyalash (mahkamlash) bosqichi qaytariladi.

4. Pastki jag'ning orqaga surilishi.

Og'iz bo'shlig'ida og'iz to'g'ri yopilganda tish qatorlarining progenik munosabati hosil bo'ladi. Hatoni bartaraf etish uchun yangidan markaziy okklyuziyani aniqlash lozim.

5. Pastki jag'ni o'ngga, chapga siljishi.

Og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirganda yon tomonlarning birida jipslashuv yo'qligi aniqlanadi. To'g'rilash uchun texnik yangi tishlov bolishchali mum asos tayyorlaydi va markaziy okklyuziya qaytatdan aniqlaniladi.

6. YUqori mumli asosning deformatsiyasi.

Og'iz bo'shlig'ida yon tishlarning do'mboqli jipslashuv ochiq prikus, prikusning ko'tarilib qolishi aniqlanadi.

7. Past mumli tishlov bolishchalarining deformatsiyasi natijasida og'iz bo'shlig'ida yon tishlarning do'mboqli jipslashuvi, ochiq prikus aniqlaniladi. Bu hatoni bartaraf etish uchun yangidan tishlov bolishchali mum asos tayyorlaniladi va qaytatdan markaziy okklyuziya aniqlaniladi.

PROTEZNING MUMLI ASOSIGA YAKUNIY SHAKL BERISH

Protez tuzilmasidagi oldin ko`rsatilgan kamchiliklar tekshirilib bartaraf etilgandan so`ng model okklyudator bilan birga tish tehnigi laboratoriyasiga yuboriladi. Tish tehnigi protez asosiga ishlov berishga kirishadi.

Qizitilgan shpatel bilan suyuq mum yordamida asos protez model chegarasi bo`yicha to`ldiriladi, qizitilgan shpatel sim joylashgan sohasiga bir necha marta kiritiladi va sim olib tashlanadi, lekin mum asos bo`zilmasligi kerak. Qizitilgan skalpeli bilan tishlar orasidagi ortiqcha mum olib tashlanib, tish qismigacha ochilib, ovalsimon shakl beriladi.

Skalpel bilan ilgaklar mumdan tozalanadi, tish benzinga botirilgan paxta bo`lagi bilan artiladi. Agarda suyak torusi va ekzostozlari bo`lsa, ular ajratiladi. Bu jarayon protezni muhim turishi, yotoq yaralari hosil bo`lmasligi va og`riq hissini sezmasligi uchun qilinadi. Ekzastaz va torus shaklini vrach gipsli modelda kimyoviy kalam bilan belgilaydi va ajratish taglik qalinligini ko`rsatadi.

Izolyatsiya qilish uchun qalinligi 0,2-0,4 mm qo`rhoshinli, qalayli zararlardan foydalaniladi. Modelda suyak bo`rtmalari o`lchamidagi zarlar orqali modelga kley bilan yopishtiriladi.

Keyin asosni shakllantirish zar yuqorisidan mum bilan davom ettiriladi. Protez polimerizatsiyasidan so`ng zar asosning ichki yuzasida qoladi. Uni protez yaltiratilgandan so`ng olinadi, botiq qirg`oqlari yaxshilab tekislanadi.

MUM ASOSLI PROTEZ TUZILMASINI PLASTMASSAGA ALMASHTIRISH LABORATOR BOSQICHLARI

GIPSLASH TURLARI:

1. To`g`ri usul – modelning yon yuzasida bitta yoki tabiiy tishlar guruhi joylashganda, hamda model yengil eruvchi metallardan qo`yilganda qo`llaniladi.
2. Teskari usul sun`iy tishlar va model orasidagi oraliq katta bo`lmaganda qo`llaniladi.
3. Aralash usul tishlar sun`iy milkda terilganda, shuningdek ko`p ildizli tishlar alveolyar o`siq tojiga yaqin joylashganda qo`llaniladi.

Protezning mumli kompozitsiyasini kyuvetaga gipslash

1. Gipslashning to`g`ri usuli:

Model kyuveta asosiga sig`adigan qilib kesiladi. Kyuvetaning tashqi qirralari tishlardan bir oz balandroq bo`lishi kerak. Suyuq gips bilan kyuveta asosi yarmigacha to`ldiriladi va model joylashtirilib, ortiqcha chiqqan gips tishlar atrofi-da bolishchalar shakllantiriladi, ular tishlarning vestibulyar yuzasini, kesuv qirralarni va chaynov yuzalarini yopib turishi lozim.

2. Gipslashning teskari usuli

Protezni plastmassadan tayyorlash uchun asosan teskari usuldan foydalaniladi. Buning uchun gipsli tishlar vestibulyar tomondan qiyalik bilan model aso-

sigacha kechiladi. SHuningdek, ilmoqlarni ushlab turuvchi gipsli ishlarni ilmoq yelkasini bo'shatish uchun kesiladi.

SHundan keyin gips aralashtiriladi, kyuvetaning yuqori qismi to'ldiriladi va unga modelning asosiy sun'iy tishlargacha joylashtiriladi. Bunda alveolyar toj sohasi, tishlar va tanglay yuza gipsdan bo'sh qoladi. So'ng kontrstampa olinadi.

Gips qotgandan so'ng kyuvetani qaynab turgan suvga mum yumshaguncha solinadi. Mum yumshaganini suv yuzasida erigan mum hosil bo'lganligidan bilishi mumkin. Kyuveta suvdan chiqariladi, shpatelning richagsimon harakati bilan ochiladi, yumshagan mum olib tashlanadi va issiq suv quyib turgan holda kyuvetadagi gips ohiriga quritiladi. Kyuveta asosiga sun'iy tishlar va klammerlar, kyuvetaning kontrstampli qismiga gipsli model o'tadi.

Gipslashning barcha turlaridan so'ng mum erishi bilan iliq modelga ajratuvchi materiallarning yupqa qavati suriladi. Kyuveta to'liq sovigandan so'ng 2-qavat ajratuvchi lak suriladi.

Olib qo'yiladigan plastinkasimon protezning asosi «ETAKRIL», (AKR-15), «FTORAKS» plastmassalaridan tayyorlanadi. Plastmassa kukuni bita sun'iy tishga 1 gr hisobida olinadi. Kukun va monomer nisbati ogirlik hisobida 2 gr:1 gr hajmida 3 : 1 olinadi.

Plastmassa chinni yoki shisha idishda aralashtiriladi va usti yopiladi. Davomiy ravishda plastmassani tez aralashtirib turish va yana idishni qopqoq bilan zich yopib qo'yish lozim.

Plastmassaning yetilishini vaqt bo'yicha aniqlash mumkin emas, chunki yetilish bosqichi granulalarning o'lchamiga, tayyorlanish muddatiga, saqlash sharoitlariga va shu vaqtdagi xona haroratiga bog'liq. Hamirsimon bosqichida plastmassasining tayyorligi hakida o'zilishida cho'ziluvchan iplarning yo'qolishiga ko'ra fikr yuritiladi (baho beriladi).

Bevosita shakllantirishdan oldin sun'iy tishlar va klammerlar monomer bilan yog'sizlantiriladi, toza qo'l bilan sellofan orqali idishda bitta protez uchun hamir olinadi, yuqori va pastki protez uchun zarur bo'lgan shakl beriladi va u bilan asos yoki kontr kyuveta yoki aralash gipslashda ikkala yarmi to'ldiriladi. Plastmassa nam sellofan plastinkasi bilan yopishadi, ularni pressga birlashtiriladi va sekinlik bilan ortiqcha kuch ishlatilmagan holda kyuvetaning ikki qismini 1,0-1,5 mm jipslashtirilib 3-5 daqiqagacha presslanadi. So'ng kyuveta pressdan chiqariladi, ochiladi, sellofan olinadi, tezlik bilan monomer uchib ketmasligi uchun plastmassaning ortiqchasi protez chetlari bo'ylab kesib olib tashlanadi. Plastmassa kam bo'lib qolgan sohalarga bor plastmassani oldindan monomer bilan namlab yangi qism kushiladi. Kyuveta birlashtiriladi va ikkala qismni to'liq jipslashtirilgan holda yakuniy presslanadi, 10-15 daqiqa ushlab turiladi, so'ng pressdan olinib byugelga mahkamlanadi va plastmassani polimerizatsiya qilishga o'tiladi.

Polimerizatsiyaning ikkita usuli mavjud:

1. Quruq
2. Nam (suvli)

Quruq polimerizatsiya kuritish shkafida 120-140° S harorat ostida 40-45 daqiqa davomida amalga oshiriladi.

Nam polimerizatsiya suvli idishda amalga oshiriladi. Polimerizatsiya sharoiti asosli polimer turiga bog`liq. SHuning uchun doim polimerizatsiya vaqtida bazis plastmassalarining idishlarida mavjud bo`lgan ishlab chiqaruvchi zavodining yo`riqlariga qat'iy rioya qilish lozim. Hozirgi vaqtda asosan «ETAKRIL» (AKR-15) va «FTORAKS» plastmassalari ishlab chiqarilmoqda. «ETAKRIL» plastmassasining polimerizatsiya sharoiti quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Polimerizatoridagi suvni 18+20 haroratdan, 60 daqiqa davomida 100⁰ gradusna qaynaguncha yetkazish lozim.
2. 40-45 daqiqa 100⁰S haroratda ushlanadi. YA'ni qaynatiladi.
3. SHundan so`ng kyuveta sekinlik bilan polimerizatorida xona haroratigacha (20 gradus) sovitiladi.
4. To`liq sovugandan so`ng kyuveta ochiladi.

Yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan hatolar, ularning namoyon bo`lishi.

Plastmassa bilan bog`liq hatolar quyidagilar natijasida kelib chiqadi:

1. Kukundan suyuqlik nisbati noto`g`ri aniqlanganda.
2. Polimerizatsiya rejimi noto`g`ri bo`lganda

Ko`pincha suyuqlik (monomer) kukuniga nisbatan ko`proq solinadi. Bunda asosda ko`p miqdorda bog`lanmagan monomer qoladi. Bu qoldiq monomer doim protezdan ajralib turadi va bu plastmassaga organizmda allergiya chaqirib, toksik stomatitga olib keladi.

Kukunga suyuqlik (monomer) yetarli qo`shilmaganda kukun monomer bilan to`liq tuyinmaydi (boglanmaydi) va polimerizatsiyadan so`ng to`liq bo`lmagan polimerizatorlar hosil bo`ladi.

Protezning tashqi ko`rinishi hira, shaffof bo`lmaydi va plastmassaning fizik-himik parametrlarning pasayishi –protezlarining tez sinishi ko`zatiladi.

Ko`pincha tish texniklari polimerizatsiya bosqichini tezlashtirish uchun kyuvetani darov chaynab suvga solishadi va 30-35 daqiqa ushlab turishadi. Bunday rejimda monomer kukun bilan polimer zanjir hosil qilishga ulgurmaydi va uchib ketgan monomer polimer ichida to`planadi. Bu turli mikroporalar ko`rinishida namoyon bo`ladi. Natijada plastmassali tish protezning mustahkamligi kamayadi.

OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZLARIGA ISHLOV BERISH

Polimerizatsiyadan keyin byugel ochilib, press yordamida gips protez bilan birga kyuvetadan ajratiladi. Protez gipsdan tozalanadi, so`ng shlefmator yordamida karborund toshlar bilan, qum qog`oz va shtihellar yordamida ortiqcha plastmassani, belgilangan chegaralargacha olinadi.

Maxsus qog`oz ushlagichga qum qog`oz qo`yiladi va shlefmator na-konechnikiga o`rnatib, protezni jilvirlash o`tkaziladi.

Turli shakldagi filtslar yordamida tishlar orasi va tishlarning o`zi silliq-lanadi, so`ng protez asosining tashqi yuzasi silliq-lanadi. Bunda protez yuzasi doim

pemza boʻtqasi bilan hoʻllab turiladi, soʻng qattiq uyotkada boʻr (mel) bilan yaltiroq boʻlguncha silliqlanadi.

Olib qoʻyiluvchi qisman plastinkali tish protezlarining sifatini baholash quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

Mashgʻulotni boshlashdan avval oʻqituvchi talabalarga oʻtilgan mavzuni eslatish kerak. Protez tayyorlashning klinik laborator bosqichlarining qanchalik toʻgʻri tayyorlanganligi ohirida plastinkali tish protezni ishlatish vaqtida sifatiga va unga tez oʻrganishga taʼsir etadi.

1. Bemorlarning subʼektiv hissiyotlari orqali
2. Tish protez chegarasi va tayanch tishlar parodont toʻqimalarining holati boʻyicha.
3. Protezning fiksatsiyasi boʻyicha
4. Bemorning tashqi kurinishini tiklanishi holati boʻyicha
5. Nutkning aniqligi va ravonligi orqali
6. CHaynov samaradorligini tekshirishni laborator koʻrsatkichlari natijalari orqali aniqlash mumkin

OLINUVCHI PLASTINKALI TISH PROTEZINI TAQIB KOʻRISH VA MOSLASHTIRISH

Protezni taqib koʻrish va moslashtirish quyidagi bosqichlardan iborat:

Avval protezni tashqi koʻrinishga protezni qalinligiga eʼtibor berish kerak. Agar qalinligi 1,5 mmdan koʻp boʻlsa, frez yordamida olib tashlash kerak (yuqori jagʻ uchun).

Bazis chetlari yumaloqlashgan boʻlishi kerak. Agar bazis chetida oʻtkir qirralari boʻlsa, olib tashlab qirralariga silliq shakl berish kerak.

«A» chizigʻi sohasida protez chegaralari yupqalashtiriladi, agar notekisliklar va yaltiratish sifati sust boʻlsa, tish texnigiga qaytadan ishlov berish uchun yuboriladi.

Klammerning oʻtkir qirralari aniqlansa, korborund tosh yoki rezina disk yordamida oʻtmaslashtiriladi. Tishlarning tashqi koʻrinishida ularning rangi, oʻlchovi va terish sifatida eʼtibor beriladi. Soʻng protez ogʻiz boʻshligʻiga kiritiladi. Koʻpincha olinuvchi plastinkali tish protezlarini ogʻizga kiritilishida tabiiy tishlar ushlab qoladi. Bunda qora qogʻoz yordamida tabiiy tishlar sohasida ortiqcha plastmassa frez yordamida protez oʻrniga toʻla tushguncha olib tashlanadi. Protez oʻrniga toʻla tushgandan keyin, chegarasini koʻramiz, harakatchan shilliq qavat va burmalar ajratiladi, shilliq qavat egatchasiga eʼtibor beriladi. Bunda protez oʻtuv burmasi darajasigacha eʼtibor berish kerak. Klammer ekvator chizigʻidan pastda joylashib butun yelka yuzasi bilan tishni zich ushlab turishi kerak va tishga ortiqcha bosim koʻrsatmaslik kerak. Agar protez oʻz oʻrniga yaxshi joylashmagan boʻlsa, uni asosini qaytadan yasash kerak yoki yangisini tayyorlash zarur.

OKKLYUZION MUNOSABATLARNI TEKSHIRISH

Protez ogʻiz boʻshligʻiga kiritilganda tishlarning markaziy jipslashuvida agar soʻnggi tishlar salgina halaqit bersa kora qogʻozda halakit kilayotgan aniq nuqtalar belgilab, frez yoki rezina disk yordamida toʻliq kontaktga kelguncha olinadi. Tishlarning yon munosabatida bloklovchi harakatlarni yuqoridagi usul yordamida bartaraf etiladi. Bunda tish doʻmboqchalarni koʻp olib tashlab boʻlmaydi, chunki ular tishlov balandligini ushlab turadi.

YUqori jagʻda bu tanglay, pastki jagʻda esa lunj doʻmboqlari hisoblanadi.

Jagʻlarning oldingi munosabatda pastgi jagʻning oldinga surilishining qiyinlashuvi, frontal tishlarning chuqur yopilishi natijasida boʻlishi mumkin.

Bu holda oldingi tishlarning oʻzunligi qisqartirilishi kerak. Protezni quyib koʻrish va moslashtirishning oxirida ishlov berilgan joylari qum qogʻoz bilan ishlov beriladi, soʻng filtsa va mʻyotka yordamida protez yakuniy yaltiriladi.

OLINUVCHI PLASTINKALI TISH PROTEZLARINI ISHLATISH VAQTIDAGI KORREKSIYASI

Agar bemor yutish vaqtidagi ogʻriqqa shikoyat qilsa, kimyoviy qalam yordamida giperemiya maydoni belgilanadi.

Soʻng frez yordamida shu sohadagi bosim bartaraf etiladi. Agar ogʻriq chaynov harakatida boʻlsa, bunda oldingi lab yuganchasi atrofi korreksiya qilinadi. Agar qusish refleksi qoʻzgʻalsa «A» chizigʻi chegarasi sohasi qisqartiriladi.

«S» va «L» talaffoʻzi boʻzilsa, tanglay oldingi sohasidagi plastmassa qalinligidan kamaytiriladi.

«T» va «D» harflari talaffoʻzi boʻzilsa, asos qalinligini kamaytirish yoki kichikroq tishlar terish yoʻli bilan tilga joy ochishi kerak. Agar bu yaxshi natija bermasa bunda prikus balandligini kamaytirish haqida oʻylab koʻrish kerak. «F» harfi notoʻgʻri aytilsa, kesuv tishlar oʻlchamini kamaytirish kerak.

Bemorlarning protezga adaptatsiya vaqti turlicha boʻlib, tish protezi ogʻiz shilliq qavati nerv ohirlarini taʼsirlantirib protez sohalari toʻqimasi tomonidan yod tana sifatida qabul qilinadi, shuning uchun olinuvchi plastinkali tish proteziga oʻrganish turli qiyinchiliklarga olib keladi.

OLINUVCHI PLASTINKALI TISH PROTEZLARIGA ADAPTATSIYADA 3 TA FAZA ANIQLANADI

1 – DAVR – taʼsirlanish fazasi boʻlib, protezni birinchi taqqan kunida boshlanadi va gipersalivatsiya, nutqni oʻzgarishi, chaynov kuchining pasayishi koʻngil aynashi, qusish refleksi koʻzatiladi.

2 – DAVR – qisman pasayish fazasi boʻlib, protez qoʻyilgandan 1-5 kundan soʻng paydo boʻladi. Bu davrda talaffoʻz, chaynov kuchi qisman tiklanadi, soʻlak chiqishi kamayib qusish refleksi pasayadi.

3 – DAVR – toʻla koʻnikish fazasi – protez qoʻygandan soʻng 5 chi kundan 33 chi kunlarda paydo boʻladi. Bu davrda bemor protezni yod modda sifatida sezmaydi. Aksincha bemor protezsiz ogʻizda noqoʻlaylik sezadi.

BEMORGA OLIB QO`YILADIGAN TISH PROTEZINI ISHLATISH HAQIDA KO`RSATMALAR

Og`iz bo`shlig`i gigiyenasi va protezni taqib yurish qoidalar:

SHifokor bemorga protezni qanday ishlatish haqida tushuncha bermog`i lozim. Bemor issiq va sovuq ovqatlarni (gusht, non, sabzavotlar, mevalar va boshk.) bemalol istemol qilishi mumkin, lekin ko`p chaynov kuchini talab qiladigan, qattiq ovqatlarni (yong`oq, qand, quritilgan non) yemasligi kerak.

Gaplashish va ovqatlanish vaqtida protezni yechmaslik, protezga o`rgandan keyingina kechasi yechishi mumkin. Har kuni sovuq suvda sovun bilan, keyin tish pastasi va tish cho`tkasida yaxshilab tozalashini tushuntirishi kerak. Protezni og`izdan tashqari vaqtida mahsus moslangan qutida, quruq holda saqlash kerak. Agar og`riq paydo bo`lsa, uni yechish kerak va shifokorga murojaat qilishdan oldin 3-4 soatga yana taqib olishi kerak. SHunda shifokorni og`riq sababini ko`rishi va aniqlashishi oson bo`ladi.

Bemor protezni o`zicha to`zatmasligi, yiliga 1-2 marta klinikaga kelishi kerak.

Agar protez darz ketsa yoki sinsa, og`iz bo`shlig`i yumshoq to`qimalarni jarohatlanmasligi uchun uni taqmasdan, shifokorga murojaat qilishi kerak. 3-4 yildan so`ng protezni yangilash kerak.

HATO VA ASORATLAR

Olinuvchi plastinkali tish protezlarini ishlatish vaqtida kelib chiqishi mumkin bo`lgan hato va asoratlar

Tehnik hatolar:

1. Plastmassa hamirini to`la presslamaslik – bunda protez bazisi qalin bo`lib, prikus ko`tarilib ko`pincha tishlar orasida do`mboqli kontakt ko`zatiladi. Bunday protezlar qaytadan tayyorlanadi.

2. Pressovka vaqtida modelda darz ketishlar ko`zatiladi (ko`pincha pastki jag`da). Bu holda ham protez qaytadan tayyorlanadi.

3. Protez chegarasini tehnik tomonidan o`zicha kattalashtirish yoki kaltalashtirish. Bu holda protez fiksatsiyasi bo`ziladi. Hatoni esa asosini qayta ta`mirlash yo`li bilan to`zatishtirish mumkin.

Klinik hatolar:

Klinik hatolar protezni mumli tuzilmasini tekshirish vaqtida o`tkazib yuborilganligi natijasida kelib chiqishi mumkin.

- markaziy okklyuziyasini noto`g`ri aniqlash
- tishlov balandligini noto`g`ri aniqlash

Odatda bu hatolar, agar yuqori jag`ga tish terish to`g`ri o`tkazilgan bo`lsa, pastki jag` protezi qaytadan tayyorlash asosida to`g`rilanadi.

Ko`proq olinuvchi plastmassali tish protezidan foydalanganda – protez stomatiti ko`zatiladi va quyidagilardan iborat bo`ladi:

- travma natijasida (mexanik)
- toksik (kimyoviy ta`sir)

- toksik va biologik (kandidoza)
- allergik
- termik (protez ostida issiqlik to'planishi)

Protez sohasidagi travmatik jarohat o'tkir va surunkali bo'lishi mumkin.

a) O'tkir mehanik travma – olinuvchi plastinkali tish protezi ta'siri kelib chiqib – gematoma (epiteliy butunligi bo'zilmadan qon quyilishi) yara erroziyasi (yuzaki jarohat) ko'rinishida bo'ladi.

b) Surunkali mehanik travma – tish protezi ta'sirida bo'lib ko'p kurinishga ega, giperemiya, shish yara, erroziya, gipertrofiya va giperkeratoz ko'rinishida bo'ladi. Bular 1 turdan 2 chi turga o'tishi mumkin bo'lib, ta'sirligining xarakteriga va og'iz bo'shlig'i sharoitiga bog'liq. O'zoq davom surunkali travma giperkeratozga (leykoplekiyaga) mugo'zlanuvchi sohalarga olib keladi.

Papillamatoz – sifatsiz olinuvchi plastinkali tish protezini taqishda kelib chiqadigan asoratdir. U asosan qattiq tanglayda ko'zatiladi. Tanglayda protez zich va bir tekisda yopishmagandan kelib chiqadi. O'zoq muddat davolash travmatik yara – og'iz shilliq qavatida havfli o'smaga aylanishi mumkin.

Qiyosiy tashxis uchun uning kechishi davomiyligi (rak uchun bir necha oy) va og'riq sindromi borligi ahamiyatga ega. Kam og'riqli va zich chetli yara havflilashganligini ko'rsatadi. Sitologik tekshirish hal kiluvchi ahamiyatga ega.

Tuberqo'lez yarasi – kuchli og'riqli, yumshoq, kattalashgan va og'riqli limfatik tugunlar hos, tashhis umumiy tekshirish asosida (og'iz shilliq qavatidagi yara doimo tuberkulezning ochik formasida ko'zatiladi) va sitologik tekshirish (Langxans hujayralari borligi) bilan hal qilinadi.

Qattiq shankar infiltrati – tog'aysimon qattiqligi, tekis chetli va silliq tubi bilan harakterlanadi. Limfa tugunlari kattalashgan zich va kam og'riqli, oqish treponema aniqlash bilan bajariladi. Rak, tuberkulez va sifilitik ta'sirlovchilar bartaraf etilishi, ularni bitishiga ta'sir etmaydi.

OG'IZ SHILLIQ QAVATI PROTEZ SOHASIDAGI PATOLOGIK HOLATLARGA SABAB BO'LADIGAN ALLERGIK VA HIMIKO- TOKSIK OMILLARNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI AKRIL QATORIDAGI PLASTMASSALAR

1. Akril plastmassadan tayyorlangan protezdan ta'siridan kelib chiqqan himiko-toksik stomatit.

Akril plastmassa polimer va monopolimerdan tashqari turli qo'shimchalarni tutadi. Ularga plastifiqator, stabilizator, to'ldiruvchi va buyoqlar kiradi. Ularning barchasi toksik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Akril plastmassasining asosiy toksikologik ta'sir qiluvchi omili – monomer hisoblanadi. Polimerizatsiya rejimi bo'zilganda qoldiq monomer miqdori juda ko'payib ketadi. Toksik stomatitning klinikasida intoksikatsiya tez va yaqqol namoyon bo'ladi.

1-7 sutkadan so'ng protez ostidagi shilliq qavat quyishi seziladi. Bemor og'zi qurishi, gipersalivatsiya, bosh og'rig'i, uyqusini bo'zilishiga va dispeptik o'zgarishlarga shikoyat qiladilar.

Og`iz bo`shlig`ini ko`zdan kechirganda ko`proq yuqori jag`da protez ostidagi shilliq qavatning shishi va qizarishi, og`izning hamma shilliq osti qavatida quruqlik ko`zatiladi. Til qizargan va quruq.

Qon tahlilida – eritrotsit, leykotsitlar miqdori kamayishi, ECHT oshishi, keyinchalik leykopeniya ko`zatilishi mumkin.

Davolashda – klinik simptomlar yo`qolguncha protez taqilmaydi. Keyinchalik yangi protez tayyorlanayotganda polimerizatsiyani rejimga rioya qilishi kerak yoki boshqa bazis plastmassaga almashtirish kerak.

AKRIL PROTEZ TA`SIRIDA KELIB CHIQADIGAN ALLERGIK STOMATIT

Allergiya – organizmning o`zining hususiy to`qimalarining shikastlanishi bilan kechadigan immun reaksiyasidir.

Allergenlar – plastmassa protezlarga allergik chaqiruvchilar bo`lib, ularga – gaptan monomerlar kiradi va ular oqsillar bilan konyugatsiyasi natijasida allergen hususiyatini oladi. Organizmga antigen tushishi uni sensibilizatsiyasini chaqiradi.

Sensibilizatsiya – bu ekzo- va endogen allergenlarni organizm immunologik sezuvchanligini kuchayishi.

Allergik stomatit – olinuvchi plastinkali protez bilan bir necha yil taqilganda paydo bo`ladi. Bu sekin kechuvchi reaksiya tipida bo`lib, kontakt yallig`lanish harakteriga ega.

Bu yallig`lanish spetsifik bo`lib, klinik kechishi bo`yicha himiotoksik va mexanik yallig`lanishga o`xshaydi.

Akril plastmassali protezlardan kelib chiqadigan allergiya plastmassa tarkibidagi ortiqcha qoldiq (0,2%) monomer ta`siridan kelib chiqadi. Bundan tashqari akrilat plastmassasi tarkibiga kiruvchi bo`yoqlar (Sudan –IV) ham kam hollarda (0,01%) allergiya chaqirishi mumkin. Plastmassa tarkibiga kiruvchi boshqa qo`shimchalar allergiya chaqirmaydi.

Akril plastmassasidan kelib chiqqan allergiyada bemorlar protez ostida tilda, labda va alveolyar o`simtada doimiy qizish bo`lganligi sababli olinuvchi protezlarni ishlatish qiyinligiga yoki ishlatib bo`lmasligiga, og`iz qurishiga, so`lakning quyuqligiga va (giposalivatsiyaga) so`lakning kam ajralishiga shikoyat qiladilar.

Protez maydonini ko`zdan kechirganimizda, protez bazisning ichki tarafi tegib turuvchi shilliq qavatda aniq ifodalangan yallig`lanish (qizarish) bo`lishi yoki bo`lmasligi ham mumkin. Bunday bemorlarda o`ziga hos shikoyatlardan yana biri – lunj, til, lab, yumshoq tanglay va yutqinlarning shilliq qavatining shishib ketishidir. (Kvink shishi) natijada bemor yutishga, ayrim hollarda nafas olishga qiynaladilar. Til og`izga sigmay qoladi va tez-tez uni tishlab olinadi.

Akril plastmassalarga allergiya bo`lganda qon tarkibida ham bir qancha o`zgarishlar bo`lib, ular quyidagicha bo`lishi mumkin: leykoplakiya, limfotsitoz, monotsitoz, teridagi plastmassaga nisbatan – «teri-allergik», sinamasining ijobiy natijalari.

Immunologik o'zgarishlarni ko'radigan bo'lsak, bu holatda «T» va «V» limfatsitlarning kattalashishi, igA miqdorining kamayishi – lizatsim va boshqa bi-ohimik o'zgarishlar kelib chiqishi mumkin.

Allergik holatda bemorda turli hil shikoyatlari va o'zgarishlari kelib chiqishi mumkin. Ular mahalliy va umumiy bo'lishi mumkin.

Bunday bemorlarni davolashda avval darhol bemor og'zidan protezni yechib olinadi. So'ngra ma'lum bir dori-darmonlar tavsiya qilinadi. Allergiya holati o'tgandan so'ng bemorga protezni boshqa bazis plastmassasidan tayyorlab beriladi.

IKKI QAVATLI BAZIS TAYYORLASHGA BO'LGAN KO'RSATMALAR

YUmshoq taglikli elastik plastmassadan tayyorlangan ikki qavatli bazisli protez quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

1. Alveolyar o'siqning notekis atrofiyasida, shilliq qavatning kam beriluvchanligida (quruq bo'lganda) va protez fiksatsiyasini yaxshilashda

2. Protez maydoni sohasida ekzastozlar, o'tkir suyak o'smalari va ingichka qirrali alveolyar o'siqlar bo'lganda

3. Murakkab yuz-jag' protezlar tayyorlashda (ekzaprotezlar)

4. Bir vaqtning o'zida ko'p tishlar olinishidan keyin tayyorlanadigan imediat protezlar tayyorlashda.

5. Og'iz bo'shlig'i, protez maydonidagi shilliq qavatning surunkali kasalliklarida.

6. Akril plastmassalaridan tayyorlangan protezlarga allergik ta'sirlanish (o'zgarishlar) bo'lganda

7. Og'iz shilliq qavatining (protez maydonidagi) sezgirligining oshishi natijasida kuchli og'riq sezuvchanligida qo'llaniladi.

YUqorida aytilgan maqsadlar uchun «Ortosil», «Ortosil-M», «Eladent-100», elastik (taglik uchun) plastmassalar ishlatiladi.

METALL PLASTINKA ASOSLI TISH PROTEZLARI

Metall asosli qisman olib qo'yiluvchi tish protezlari asosi ko'pincha yuqori jag' protezlarining tez-tez sinishlarida, pastki jag'-bazisli protezlarga allergiya bo'lganda, og'iz shilliq qavatining surunkali kasalliklarida qo'llash mumkin. SHunday hollarda qo'llaniladigan metall bazisning qalinligi 0,3-0,4 mm bo'lib, asosan quyma usulda tayyorlanadi.

Ezish usuli bilan hozirgi vaqtda juda kam tayyorlanadi. Quyma usulda tayyorlashda asosan hrom-kobalt qotishmalari ishlatiladi. Hozirgi vaqtda asosan aralash bazislar ishlatiladi, ya'ni protezning tanlay qismi metall dan tayyorlanib, vestibulyar qismi (sun'iy tishlar joylashadigan qismi) esa plastmassadan iborat bo'ladi.

OLIB QO`YILUVCHI PLASTINKALI PLASTMASSADAN TAYYORLANGAN TISH PROTEZLARINING ASOSINI (BAZISINI) METALL BILAN QOPLASH (METALL KUKUNI) USULI

Akril plastmassalaridan tayyorlangan protezlarda bemorlarda allergik holat ko`zlatishganda, yuqorida aytilgan usullardan tashqari yangi usullar qo`llanishi mumkin. Bu usul yordamida plastinkasimon tish protezlarining asosini (bazisini) kimyoviy yo`l bilan metall kukuni qoplanadi. Buning uchun kimyoviy yo`l bilan elektrolit eritmalari bo`lgan, kumush, oltin, palladiy elementlari ishlatiladi. Ximiyaviy reaksiyani olib borish uchun odatda kumush nitrat yoki uning aralash to`z (AgNH_3) NO_3) qo`llaniladi.

Qaytaruvchi sifatida esa formaldegid yoki glyukoza ishlatiladi. Kumushning plastmassa asos bilan birikish mexanik jarayon bo`lib, metall bilan qoplanuvchi yuza mayda gadir-budurlikka ega bo`lishi kerakdir, hamma yuza spirt bilan yog`sizlantirilgan va toza yuvilishi kerakdir. Lekin kumush protez asosidan 2-3 hafta ichida yo`qolib ketadi. Natijada qayta metallash uchun bemor bir necha bor qatnashiga to`g`ri keladi.

Akril plastmassali bazis protezlarining yuzasini oltin bilan qoplash ancha samarali bo`lib, oltinning plastmassa bilan adgeziyasi yetarli darajada mustahkam bo`ladi.

OLIB QO`YILADIGAN PLASTINKALI TISH PROTEZLARINING SINISH SABABLARI VA ULARNING TO`ZATISH USULLARI

Olib qo`yiladigan plastmassali tish protezlarning sinish holatlari quyidagi sabablar orqali yuzaga kelishi mumkin:

1. Asos plastmassa hom-ashyosining fizik-kimyoviy xususiyatlarining yetishmovchiligidan
2. Tish texnigining plastmassani tayyorlashdagi laborator bosqichlarini noto`g`ri olib borishi natijasida
3. Bemorlarning protezni taqib yurishi vaqtidagi ehtiyotsizligi natijasida
4. Jag` suyagining atrofiyasi natijasida protez maydoni sohasining protez asosiga mos kelmasligi natijalari orqali tish protezlari sinishi mumkin.

Qisman olinuvchi plastmassali plastinkasimon tish protezlarining sinishi, tabiiy tishlar bor sohasiga to`g`ri keladi.

Plastmassali protezlarni yamash ikki usulda olib boriladi:

1. Klinik usulda singan protezlar tez qotuvchi plastmassalar (Protakril, Redont) yordamida tiklanadi.
2. Laborator usulida protez singan qismini, o`zidan tayyorlangan bazis plastmassalari (etakril, ftoraks) orqali tiklanadilar.

KLINIK USULDA SINGAN PROTEZLARNI TEZ QOTUVCHI PLASTMASSALAR YORDAMIDA TIKLASH

Buning uchun singan protez sinish chizig'i bo'ylab, uning ikkala yuzasiga, protakril plastmassasining jamlamasiga kiruvchi «dihlor etan» yelimi surilib, 2-3 daqiqaga qo'l bilan ushlab turiladi. Yelimlangan protez qotgandan so'ng undan gipsli model tayyorlaniladi. Albatta ikkinchi jag' modeli ham tayyorlaniladi. Singan protez modeliga kontur model ham tayyorlaniladi va markaziy okklyuziya avval aniqlangan bo'ladi. Singan protez modeldan olinib, singan chiziq bo'ylab ikki bo'lakka (elimlangan) joydan ajratiladi.

Singan protezning ikkala bo'lagini sinish chizig'i bo'ylab o'zunligi, kengligi va qalinligidan 1-5 (2) mm plastmassadan olinadi. Model va kontr model-lar ajratuvchi lak «Izokol» bilan surtilib, protez singan qismlari modelga joylashtiriladi va kontr model orqali qanchalik to'g'ri joylashganligi tekshiriladi.

So'ngra tez qotuvchi «Protakril» yoki «Redont» plastmassalari olinib, shisha yoki fosfor idishlarda monomer va polimer, kukun va suyuqliklari bir-biri bilan, 2:1 og'irlikda aralashtiriladi. Kukun (poroshok) suyuqlik (monomer) bilan to'yintirilib, ustidan monomer uchib ketmasligi uchun shisha plastinka bilan yopib qo'yiladi.

Atrof haroratiga bog'liq holda plastmassa hamiri 3-5 daqiqada tayyor bo'ladi (avval yahshilab aralashtirib olinadi).

Protezning sinik bo'laklari plastmassa suyuqligi bilan artilib, tayyor bo'lgan plastmassa xamiri ortig'i bilan protez sinigi bo'ylab joylashtirib, kontr model bilan bosiladi.

Ortiqcha chiqqan plastmassalar olib tashlanadi. Polimerizatsiya, 15-20 daqiqa davomida yakunlanadi. So'ngra protezga ishlov berilib yaltiratiladi va bemorga taqiladi. Protezlarni klinik usul bilan yamash vaqtinchalik bo'lib, ma'lum vaqt o'tgach protez yana tez-tez sinishi mumkin. Ikki hil plastmassa bo'lgani uchun asos plastmassaning fizik-himik hossalarning ko'rsatkichlari pasayadi hamda gigiyenik tomonidan ham plastmassaning shilliq qavat tomoniga qaragan yuzasida mikroblar to'planishi kuchayadi. Natijada nohush hidlar hosil bo'ladi. SHuning uchun ham singan olib qo'yiladigan plastinkali protezlarni sifatli yamash usuli bilan laborator yo'li hisoblanadi. CHunki bu usulda protez o'zi tayyorlangan bazis plastmassasi orqali (yamaladi) tiklanadi.

LABORATOR USULI BILAN SINGAN PROTEZLARNI TIKLASH

Buning uchun yuqorida aytib o'tilganidek protez yelimlanib, model qo'yiladi. Protez asosi singan chiziq bo'ylab o'zunasiga, qalinligiga (yarmisigacha), eniga (5-10mm) o'lchamlari bo'yicha protez asosidan olinadi. So'ngra mum yordamida plastmassadan olingan joylar to'ldirilib protez shakli tiklanadi. Model protez bilan birga kyuvetaga to'g'ri usul bilan gipslanib, mum plastmassa bilan almashtiriladi. Bu usulda protez o'zi tayyorlangan asos (bazis) plastmassasi bilan tiklanadi. Bu holatda ikkala singan qism bir-biri bilan bir hil kimyoviy birikib ketadilar. Natijada plastmassasining fizik-himik xususiyatlari o'zgarmaydi. Poimeri-

zatsiya jarayoni tugagach protez kyuvetadan olinib, unga ishlov beriladi va yaltiratib, bemorga topshiriladi.

OLINADIGAN PLASTINKALI PLASTMASSALIK PROTEZLARNI SHILLIQ QAVATGA TEGIB TURGAN PROTEZNING ICHKI YUZASINI QAYTA TIKLASH USULI

Plastinkali protezlarning protez maydoniga tegib turuvchi asosini quyidagi hollarda qayta tiklanadi.

1. Suyak to`qimasining atrofiyasi natijasida protez maydoni sohasining protez asosiga to`g`ri kelmasligi natijasida

2. Olingan qolipning sifatsizligi natijasida yoki tish texnigining hatoligi orqali bo`lishi mumkin. Tish texnigining protez chegaralarini kaltalashtirishi, modelning butunligini o`zgarishlari sabab bo`lishi mumkin.

Protez asosini qayta tiklash (perebazirovka) ikki usul yordamida amalga oshirilishi mumkin.

KLINIK USUL

Klinikada avval protez chetlari (chegarasi) o`tuv buralmasiga nisbatan kaltalashtiriladi (1,5-2 mm). Bir vaqtning o`zida kaltalashtirilgan protez chetlarini vestibulyar yuzasidan ham 2-2,5 mm qalinlikda olinib yupqalashtiriladi. SHundan so`ng protez asosining shilliq qavatga tegib turgan yuzasi bo`yicha 1-1,5 mm qalinlikda plastmassadan olinadi. Bu ishlar metall Frezlar yoki Korborund toshlar yordamida olib boriladi. Sun`iy tishlar o`zgarmasligi uchun ularga vazilin surtiladi.

SHundan keyin tez qotuvchi «Protakril» yoki «Redont», plastmassasi olinib, shisha idishda 2 qism polimerga 1 qism monomer solib aralashtiriladi va usti yopib qo`yiladi. 3-5 minut vaqt o`tgandan so`ng plastmassaning «cho`ziluvchan ip» bosqichining boshlanishi bilan darxol uni, ishlov berilgan protez asosiga, protez chetlari bilan yopilguncha bir tekisda solinadi. 10-15 sekund ushlab turiladi. Bu vaqt ichida plastmassa yuzasi solinadi. 10-15 sekund ushlab turiladi. Bu vaqt ichida plastmassa yuzasi hira (oqish) tortadi. Ana shu davrda protez og`iz bo`shlig`iga – protez maydoniga olib kirilib, jag`ga bosib joylashtiriladi. Bemorning jag`larini markaziy okklyuziya holatida yopishtirib, turli funksional xarakterlar va sinamalar bajariladi. Protezning vestibulyar tomonidan chiqqan ortiqcha plastmassalar olib tashlanadi. Ortiqcha plastmassalar protez chegarasiga (qirg`og`iga) 2-3 mm tegilmagan holda olib tashlanadi. Bu vaqtda ichida protez (qirg`og`i) chegarasi aktiv va passiv usullar bilan shakillantiriladi. Protez og`iz bo`shlig`ida tahminan 1-1,5 daqiqa turadi. Plastmassaning rezinkasimon qotish bosqichida protez-og`izdan olinadi. Bemorning og`zini suvli soda eritmasida chayqatiladi. CHiqazib olingan protez issiq joyda qotguncha ushlanadi (10-15 min).

Protezning qotishini (polimerizatsiyasini) 40-50⁰S temperaturada, 3 atmosfer bosim hosil qila oladigan maxsus apparaturalarda (quruq havoli polimeri-

zatorlarda) o'tkazilishi lozimdir. Tayyor bo'lgan protezdan ortiqcha plastmassalar olinib, qayta ishlov beriladi (vestibulyar yuzalar) va yaltiratiladi. Asosi qayta tiklangan protez fiksatsiya va stabilizatsiyasi yaxshilaniladi. Lekin klinik usul vaqtinchalik protezni fiksatsiyasini yaxshi saqlanadi. Keyinchalik ko'p asoratlar keltirib chiqaradi.

LABORATOR USUL

Laborator usuli bilan protez asosini tiklashda (perebazirovka), protezni tayyorlash yuqorida aytilgan usul bo'yicha tayyorlaniladi. Ana shu bemor taqib yurgan proteziga hususiy qoshiq sifatida foydalanib, selikonli qolip olinadi.

Laboratoriyada texnik protezni qolip bilan birgalikda to'g'ri usulda kyuvetaga ko'madi. Kyuvetani ochgandan so'ng protez asosidagi qolip oluvchi homashyo olib tashlaniladi. SHundan keyin asos plastmassasi (Etakril, Ftoraks) tayyorlanib klip o'rni to'ldiriladi va polimerizatsiya bosqichi olib boriladi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, bunda protez asosi, o'zi tayyorlangan plastmassadan qayta tiklanadi, shilliq qavat bilan zich yopishadi. Tiklangan qavat asosidan ajralib turmaydi. Toksik ta'sir ko'rsatmaydi.

MASHG'ULOTDA QO'LLANILADIGAN YANGI PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR

*«Muammoni hal qilish», «Qora quticha»,
«Dumaloq stol atrofida»*

«MUAMMONI HAL QILISH» USULI

Ushbu usul mashg'ulot davomida har bir talabaning faol qatnashishini ko'zda tutadi. Bu usul bo'yicha har bir talaba mavzuning ma'lum bir bo'lagini olib, mustaqil ravishda tayyorlanib, o'z javoblariga asoslangan holda, muammoni hal qiladi. Guruhga mavzuning qismlari bo'yicha vaziyatli muammo tarqatiladi. Masalan «qisman olib qo'yiluvchi tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlar», har bir talaba o'zining mavzusi bo'yicha javoblarini 5 daqiqa ichida yozadi. So'ngra yon qo'shnisi bilan maslahatlashadi va o'zining javob variantini aniqlaydi. Keyin yana bir qo'shni talaba bilan maslahatlashib, yana bir javob variantini aniqlaydi. Bu holatda har bir guruhda 3-tadan talaba ish olib boradi. Natijada talabalar guruh uchun ma'qol, to'g'ri bo'lgan javob variantini o'z daftariga yozadilar. So'ngra javoblar muhokama qiladi va to'ldiriladi. Usulning ohirida o'qituvchi berilgan javoblarni muhokama qiladi va talabalarning faoliyatini aniqlaydi.

«QORA QUTICHA USULI»NI QO'LLASH

Ushbu usul bilan o'qituvchi mavzuning asl maqsadini aniqlaydi hamda talabalarning hammasini o'yinda faol qatnashishini ta'minlaydi. Quyidagi usulda har bir talaba qora qutichadan mavzuning ma'lum bir qismining nomi yozilgan

so'rovnomanini oladilar. Surovnoma orqali har bir talaba, mavzuning o'ziga tegishli qismini aniqlaydilar va daftarga yozib tayyorlanadilar. Talabaga tayyorlanishi uchun 10 daqiqa beriladi.

So'ngra javoblar muhokama qilina boshlaydi. Muhokama qilinayotganda talabalarning javob berishi, mavzuning ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ketma-ketlik avvaldan tayyorlanib yozib qo'yiladi va hamma ko'radigan holda qog'ozga yozilib, stol o'rtasidagi joylashtiriladi. YOzilgan ketma-ketlik asosida talabalar javob bera boshlaydilar. Har bir mavzuning qismi boshqa talabalarning muhokamasi va o'qituvchining to'ldirishi bilan olib boriladi. Usulning ohirida o'qituvchi ko'rilgan mavzuning har bir qismini muhokama qiladi va talabalarning faolligini aniqlaydi. Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada mustaqil fikrlash, mulohaza yuritishni shakllantiradi.

«DUMALOQ STOL ATROFIDA» USULI

Quyidagi usul orqali har bir talabaning bilim darajasini aniqlash bo'lib, ularning mustaqil ravishda, mavzuni muhokamasida faol qatnashishlarini ta'minlaydi. Buning uchun talabalarga o'tilgan mavzu bo'yicha, tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Talabalar doira bo'lib, o'tiriladilar. Mavzu bo'yicha qisimlarga bo'lib tayyorlangan so'rovnoma talabalarga tarqatilgan. Avval mavzuning boshlanishi va ketma-ketligiga ahamiyat bergan holda so'rovnoma tarqatiladi. (masalan mavzu bo'yicha: «Tekshirish usullari», «Klinik o'zgarishlar», «Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezini tayyorlash klinik bosqichlari va h.k.).

Guruhda har bir talabaga alohida, alohida mavzu so'rovnomasi tarqatiladi. Talabalar o'z mavzusi bo'yicha javoblarni yozadilar va keyingi talabaga so'rovnomanini o'tkazadilar. SHu tariqa hamma talabalar har hil mavzu so'rovnomasi asosida o'z javoblarini daftarlarga yozib oladilar. Natijada har bir talaba nechta so'rovnoma tarqatilgan bo'lsa shuncha hil javoblarni o'z daftarlarga yozadilar. SHundan so'ng har bir so'rovnoma bo'yicha muhokama olib boriladi va daftarlarga yozilgan javoblar solishtirib, tekshiriladi. Noto'g'ri javoblar o'chiriladi. SHu tariqa har bir talabaning butun dars mavzusi bo'yicha faolligi aniqlaniladi va baholaniladi.

YUqorida keltirilgan usullar bilan mashg'ulot olib borish mavzusini keltiramiz. Mavzuning ketma-ketligi:

1. Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlar va ularni terish qoidalari.
2. Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezining mum asosli tuzilmasini bemorda tekshirish.
3. Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezining mum asosini plastmassaga almashtirish.
4. Olib qo'yiladigan tish protezlari uchun ishlatiladigan bazis plastmassani tayyorlash va kyuvetaga joylashtirish.
5. Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish proteziga (plastmassaga aylantirilgandan so'ng) ishlov berish va uni baholash.

6. Tayyor bo'lgan protezni bemor tish qatoriga joylashtirish. Hato va kamchiliklar.

7. Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezlaridan foydalanish qoidolari.

8. Bemorlarni olib qo'yiluvchi tish protezlariga ko'nikish jarayonlari.

MAVZUNI QISQACHA SHARHI (JAVOBLAR)

1. Sun'iy tishlar ko'pincha plastmassadan, chinnidan va ayrim hollarda metallardan tayyorlanadi. CHinni tishlar plastmassa asos bilan mustaqil birikishi uchun diatorik va krampon holatida bo'ladilar. Sun'iy tishlarni tanlashda asosan qolgan tishlarning shakliga rangiga, yuz shakliga, yuz teriga, rangiga, jinsiga, hamma tishlar (yuqorigi frontal tishlardan tashqari) alveolyar o'siqning o'rtasiga moslangan holda teriladi 21 | 12 tishlarning 2/3 qismi vestibulyar tomonga, 1/3 qismi tanglay tomonga surilgan bo'ladi. **(Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlar va ularni tanlash, terish qoidolari).**
2. Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezining mumli tuzilmasini bemorda tekshirishi vaqtida, avval protezni okklyudatorda yoki artikulyatorda turgan holida tekshiramiz. Bunda modelning butunligiga, (buzilmaganligiga) protez maydonida nuqsonlar borligiga ahamiyat beramiz. Ilgichlar holati aniqlaniladi. Markaziy jipslashuv tekshiriladi. SHundan keyin mum asosli protez bemorga taqib ko'riladi. Tishlar markaziy okklyuziyada maksimal bir – biriga jipslashib turgan bo'lishi, ilmoqlar, tayanch tishda, tishning ekvatori bilan, tishning bo'yin soha oraligida joylashgan bo'lishi kerak. Fiksatsiya va stabilizatsiya aniqlaniladi. Prikus balandligi o'zgarmaganligi aniqlaniladi. **(Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezining mum tuzilmasini bemorda tekshirish).**
3. Mum asosli protez tuzilmasiga yakuniy ishlov beriladi. YA'ni protez chegaralari mum bilan to'ldiriladi, bazisdan sim olib tashlanadi va o'rni mum bilan yopiladi. Tishning atrofiga pichoq yordamida ishlov beriladi. Suyak torusi va kistalar ajratiladi (izolyatsiya). YAkuniy shakl berilgandan so'ng mum tuzilmali protez kyuvetaga 2 qismida: asosiy va yuqori kisimdan tashkil topgan bulib, ular ham 2-qisimdan iborat bo'ladi. Umumiy to'rt bulakni tashkil qiladi. **(Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezining mum asosini plastmassaga almashtirishga tayyorlash).**
4. Olib qo'yiladigan qisman plastinkali tish protezining asosi uchun etakril, Ftoraks bazis plastmassalari ishlatiladi. plastmassa polimer (kukun) va monomer (suyuqlik) dan tashkil topgan. Ular 2:1 (polimer + monomer) og'irlik nisbatida bir-biriga aralashtiriladi. Buning uchun chinni yoki shisha idishlar ishlatiladi. Idishning qopqogi yopilib, yetilishi kutiladi. plastmassa hamiri uy haroratida (18-20⁰S) 15-20 daqiqada ishlatilishiga tayyor bo'ladi. Plastmassa tayyor

bo'lgach, kyuvetaga eritib chiqarib yuborilgan mum urniga, joylashtiriladi va kyuveta yopilib, press yordamida presslanadi va byugelga joylashtirilib polimerizatsiya uchun suvga qo'yiladi. Polimerizatsiya olib boriladigan termik sharoit quydagicha bo'ladi. Suv harorati 18-20⁰S dan +100⁰S gacha 60¹ daqiqa ichida olib chiqiladi. SHu haroratda 45-50 daqiqa qaynatiladi. So'ngra qaynatish (suvni) tuhtatiladi va ana shu holatda kamida 2-3 soat ushlanadi. Kyuveta suvdan olinib, havoda uy haroratigacha sovitiladi. **(Bazis plastmassasini tayyorlash va polimerizatsiya jarayoni).**

5. Protez gipsdan tozalaniladi, so'ng shlifmator yordamida karborund toshlar, egov, shtihel va shaberlar yordamida ortiqcha plastmassalarni belgilangan chegaralargacha olinadi. Mahsus qog'oz ushlagichga qum qog'oz urnashtirilib, shlefmator yordamida protez silliqilaniladi. So'ngra turli shakldagi filtslar yordamida tishlar orasi va tishlarning o'zi silliqilaniladi, keyin protez asosining tashqi yuzasi silliqilaniladi. Bunda protez yuzasi doimo pemza (gil tuprok) butkasi bilan hullab turiladi. Ohirida qattiq metk orqali bur (mel) bilan yaltiroq bulgungacha silliqilaniladi. **(Olib qo'yiladigan qisman plastinkalik tish proteziga ishlov berish).**
6. Protezga baho beriladi, ya'ni uning sifati, yaltirashi (silliqlik) darajasi, qalinligiga ahamiyat beriladi. Protez asosining qalinligi 1,5 mm ko'p bo'lsa, frez yordamida olib tashlanadi. (YUqori jag' uchun). Agarda protez asosining (bazisning) chetlari (chegaralari) o'tkir qirralari bo'lsa olib tashlanib, silliq yumalok shakl beriladi. Protezning «A» chizik sohasi qalin bo'lsa, uni yupkalashtiriladi. Agarda tish bo'yin sohaslarida notekisliklar va yaltiratish sifati past bo'lsa, tish texnigiga qaytadan ishlov berish uchun yuboriladi. Ilmoqning o'tkir qirrasilari yumaloqlashtiriladi. Tishlarni terish sifatiga e'tibor beriladi. Bemorda tekshirib ko'rishda, tish protezini og'izga kiritilishida tabiiy tishlar sohasida protez ushlanib qolishi mumkin. Bunday holatda qora qog'oz yordamida tabiiy tishlar sohasida ortiqcha plastmassa frez yordamida, protez o'z o'rniga to'la tushguncha olib tashlaniladi. Protez o'z o'rniga to'la tushgandan keyin o'tuv burmasi buylab, harakatchan shilliq qavat holati aniqlaniladi. Ilmoqlar tishning ekvator bilan buyin sohasi oraligida joylashuvini, butun yuza bo'yicha tishga tegib turishini, ortiqcha bosim ko'rsatmasligi aniqlaniladi. Protezning fiksatsiya va stabilizatsiyasi tekshiriladi. Prikus balandligi va markaziy okklyuziya holati ko'riladi. Bunda tishlar bir-biri bilan maksimal jipslashgan holatda bo'lishi kerak. Hato va kamchiliklar aniqlaniladi va bartaraf qilinadi. **(Tayyor bo'lgan tish protezini bemor tish qatoriga joylashtirish. Hato va kamchiliklar).**
7. SHifokor bemorga protezdan qanday foydalanish haqida tushuncha bermogi lozim. Bemor issik va sovuq ovqatlarni (go'sht, non, sabzavotlar, mevalar va h.k.) bemalol, lekin sekin nasta iste'mol qilishi mumkin. Lekin ko'p chaynov kuchini talab qiladigan qattiq ovqatlarni yemasligi kerak. Protezni doimo taqib yurish, unga to'liq urgangandan keyingina kechasi yechib yotishi mumkin

bo`ladi. Har ovqatdan keyin protezni yaxshilab tozalash va yuvishi zarur. Agar-da protez maydonida og`riq paydo bo`lsa, uni yechish va darhol shifokorga murojaat qilishi kerak. Protez darz ketsa yoki sinsa bemor o`zicha to`zatmasligi kerak. Protezni klinik holatida kelib chiqqan holda, o`rtacha har 3-4 (4-5) yilda protezni yangilash kerak. **(Olib qo`yiladigan qisman plastinkali tish protezlaridan foydalanish qoidalari).**

8. Bemorlarning olib qo`yiluvchi qisman plastinkali tish protezlariga moslashish (ko`nikish) vaqti turlicha bo`lib, u protez maydonidagi shilliq qavat nerv ohirlarining ta`sirlanishi natijasida yuzaga keladi. Ko`nikish bosqichlari quyidagicha:

1 – DAVR – ta`sirlanish fazasi bulib, protez birinchi taqkan kunidan (2-3 soat o`tgach) boshlanadi. Bunda gipersalivatsiya, nutqini o`zgarishi, chaynov kuchining pastligi, ko`ngil aynish refleksi, qandaydir noqo`laylik ko`zatiladi.

2 – DAVR – qisman pasayish fazasi bo`lib, protez taqilgandan, 1-5 kundan so`ng yuzaga keladi. Bu davrda nutq (talaffuz), chaynov kuchi qisman tiklanadi. So`lak chiqish kamayib, qusish, ko`ngil aynish refleksii pasayadi.

3 – DAVR – to`liq ko`nikish (moslashish) fazasi – protez qo`yilgandan so`ng 5-33 kunlar oralig`ida yuzaga keladi. Bu davrda bemor protezni yod moda sifatida sezmaydi. Aksincha bemor protezsiz og`izda noqo`laylik sezadi. **(Bemorlarni olib qo`yiladigan tish protezlariga ko`nikish jarayonlari).**

6.2. TAHLILIY QISM. VAZIYATLI MASALA

1. 62 yoshli bemor bir yildan beri foydalanib kelgan qisman olib qo`yiluvchi plastinkali fiksatsiyasi yahshi emasligiga shikoyat qilib keldi. YUzning pastki 1/3 qismi qisqargan, og`iz burchagida bichilish ko`zatiladi. Alveolyar o`simtalar bir tekisda atrofiyalangan. Plastmassa tishlar ikkala protezda ham ko`p yedirilgan. Pastki jag` nisbiy fiziologik tinch holatida, tish qatorlari orasidagi yoriq 6 m/m. Qayta protezlash taktikasini o`ziga hos tomonlari qanday?

Javob: Ketma-ket dezokklyuziya usuli bilan, tishlovni vaqtinchalik protezlar bilan 2 m/m dan ko`tarib tishlov balandligini tiklash, so`ngra doimiy protez tayyorlash.

2. 55 yoshli bemor so`zlashishi qiyinligiga chaynov mushaklarini toliqishiga shikoyat qilib keladi. 20 kun avval qisman olib qo`yiluvchi protezlar taqkan. Tashqi ko`zatuvda burun lab, dahan burmalari chuqurlashgani, og`iz burchaklari pastka osilgan, dahan oldinga siljigani kuzatiladi. pastki jag` nisbiy fiziologik tinch holatida. Frontal tishlar orasidagi yoriq 7 m/m. Bemorni protezlashda qanday hatoliklar bo`lgan bo`lishi mumkin?

Javob: Protezlashda tishlov baladligi ko`p pasaytirilgan.

3. Bemor qisman olib qo'yiluvchi protezlardan 1 yildan beri foydalanmokban. Qattiq tanglay shilliq qavati jarohatlanib yallig'langan. Mumkin bo'lgan sabablarni ayting?

Javob: Bu davrda alveolyar o'simtalar atrofiga uchragan, qattiq tanglay esa atrofiyalanmagan.

4. 60 yoshli bemor qisman olib qo'yiluvchi protezlar bilan, sun'iy tishlar taqilishiga, chaynov mushaklari toliqishiga, og'iz katta ochilganda protezlar fiksatsiyasi yaxshi emasligiga shikoyat qilmoqda. Protez tayyorlashni qaysi bosqichida hatolikka yo'l qo'yilgan?

Javob: Tishlov balandligi ko'p ko'tarilgan. Tishlar orasida pastki jag' nisbiy fiziologik tinch holatida yoriq yo'qolgan.

5. 62 yoshli bemorni yuqorigi jag'iga 2 kun avval qisman olib qo'yiluvchi protez qo'yilgan. Ovqatni o'zib olish vaqtida protez orqasi siljishiga shikoyat qilmoqda. Mumkin bo'lgan sabablarni va uni yo'qotish usullarini ayting?

Javob: Oldingi okklyuziyada uch punktli Bonvil kontakti yo'q. Yangi protez tayyorlash kerak.

6. Qisman olib qo'yiluvchi protezlar bemorga topshirilgandan so'ng kesuvchi tishlar orasida yoriq borligi aniqlandi. Kaysi klinik bosqichda, qanday hatolik sodir bo'lgan 7 kuni qanday tuzatish mumkin?

Javob: Mumli tishlov bolishchalarni jiplashtirishda jag' tishlar sohasida avval jiplashuv sodir bo'lgan. Frontal tishlar sohasiga yumshatilgan mum quyib tishlatib, frontal tishlarni yangidan terish kerak.

7. Qisman olib qo'yiluvchi protezlarni mumli shaklini tekshirishda okklyuziyada o'ng tomonda tishlar orasida yoriq borligi aniqlandi. SHifokor qanday hatoga yo'l qo'ygan va uni yo'qotish qanday bo'ladi?

Javob: Mumli bolishlarni jiplashtiruvda avval jiplashuv chap tomonda sodir bo'lgan. Tuzatish uchun o'ng tomonga yumshatilgan mum tishlatish va tishlarni qaytadan terish kerak.

8. 66 yoshli bemor bir yil avval yuqorigi jag'iga qisman olib qo'yiluvchi protez kuydirgan. SHu vaqt mobaynida protez bir necha marotaba singan va uni yamattirgan. SHilliq qavatni issiqlik sezishi buzilgan. Kuzatilganda qattiq tanglayda torus borligi aniqlangan. Sizni taktikangiz?

Javob: Torusga tegmaydigan qilib metall asosli yangi protez tayyorlash kerak.

9. 71 yoshli bemorga bir yil avval qisman olib qo'yiluvchi protezlar qo'yilgan. YUqorigi jag'da protez fiksatsiyasi yahshi emasligi, so'zlashishi,

chaynov harakatlarida protezni tushib ketishiga shikoyat qilmoqda. YAngi protez qo'yishdan voz kechmokda. Sizning harakatingiz?

Javob: Funksional sinamalar, chaynov harakatlari va so'zlashuv sinamalari bilan klinik yoki laborator usul bilan perebazirovka qilish.

10. Bemorga qisman olib qo'yiluvchi protez taqilgandan so'ng pastki jag' yon harakatlarida chegaralanish hosil bo'lishi aniqlandi. Protezlashni qaysi bosqichda hatolikka yo'l qo'yilgan? Bu hatolik nimadan iborat?

Javob: Sun'iy tishlar okklyudatorda terilgan.

11. 68 yoshli bemorni ikkala jag'ida qisman nuqson. Alveollar o'simtalar shilliq qavati atrofiyaga uchragan. Alveolalar o'simtalar va qattiq tanglay shilliq qavatlari juda yupqa. Bu bemordan qanday qolip va qaysi usulda qolip olish kerak?

Javob: Suyuq gips yordamida chegaralari kengaytirilgan bosimsiz qolip olish.

12. 63 yoshli bemorga ikkala jag'larga qisman olib qo'yiluvchi protezlar qo'yilgandan so'ng, jag' tishlar sohasida bir tomonda yoriq borligi aniqlandi. Alveolalararo balandlik to'g'ri aniqlangan, sizning harakatingiz?

Javob: YOriq bor joyga yumshatilgan mum kiyib tishlatish va yangidan tish terish.

13. Bemorga qisman olib qo'yiluvchi protezlar qo'yilganida 6 oydan so'ng og'iz ochganda chakka bo'g'imida shakillash, og'riq paydo bo'lgan. Mumkin bo'lgan sabablarni aniqlang va sizning harakatingiz?

Javob: Protezlarda tishlov balandligi ko'p kutarilgan. Protezdan foydalanmaslik tavsiya qilinadi. Bo'g'imni davolab, so'ngra yangi protez tayyorlash.

14. 58 yoshli bemorga qisman olib qo'yiluvchi protezlar qo'yilgandan so'ng, chaynov harakatlarida yuqoridagi jag'dagi protezni oldingi qismi chiqib ketayotgani aniqlandi. Bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarni ayting va sizning harakatingiz?

Javob: CHaynov tishlar sohasida muddatidan avvalgi jiplashuv kuzatiladi. Korreksiya qilib to'g'irlash kerak.

15. Bemorga qisman olib qo'yiluvchi protezlar topshirilgandan so'ng yon tishlarda do'mboqli jiplashuv, frontal tishlar sohasida yoriq borligi kuzatildi. Sababini ayting?

Javob: Oldingi okklyuziya aniqlangan.

16. Bemorga ikkala jag'ga qisman olib qo'yiluvchi protez taqilgandan so'ng kesishgan tishlov aniqlandi. Sababini ayting va sizning harakatingiz?

Javob: YOn okklyuziya aniqlangan. Pastki protez yangi tayyorlanishi kerak.

17. Bemorda yuqorigi jag` qisman olib qo`yiluvchi protezning mumli shaklini tekshirishda, yuqorigi jag` oldingi tishlar labdan ko`rinmasligi aniqlandi. Qaysi bosqichda hatolik sodir bo`lgan va sizning harakatingiz?

Javob: YUqorigi jag` mumli bolishlarni jag`ga moslashtirilganda uzunligi kaltaytirilgan. YUqorigi jag` mumli bolish uzunligi boshqatdan aniqlanishi va ikkala jag` tish qatorlari boshqatdan terilishi kerak.

18. 66 yoshli bemorga yuqorigi jag`iga qisman olib qo`yiluvchi protez qo`yilgan. O`tuvchi burma sohasida og`riq bo`lishiga shikoyat qilib keldi. shifokor korreksiya qilib bergandan so`ng, protez fiksatsiyasi yaxshi bo`lmay qoldi. Sababini ayting va sizning harakatingiz?

Javob: Korreksiya vaqtida protez chegarasi kaltaytirilgan. Tez qotuvchi plastmassa yordamida protez chegarasi shu joyda uzaytirilishi kerak.

19.59 yoshli bemorga ikkala jag`iga qisman olib qo`yiluvchi protezlar qo`yilgandan ikki kun keyin, ko`ngil aynishi, so`lak ko`p ajralishi, so`zlashish qiyinligi, mazza sezish buzilishi, issiq-sovuqni sezish buzilishiga, ovqat uzib olish va chaynash qiyinligiga shikoyat qilib keldi. SHifokorni hatosini ko`rsating? Bu bemorga qanday maslahat berasiz?

Javob: SHifokor organizmni protezga bo`lgan javob reaksiyasini bemorga tushuntirmagan. SHifokor bemorga shunday bo`lishini yaxshilab tushuntirish kerak.

20.64 yoshli ikkala jag`da to`liq adentiyali bemorni kuzatilganda, chaynov mushaklari yaxshi rivojlanganligi, lablar qalinligi, dahan keng va balandligi, dahan mushaklari yaxshi rivojlanganligi, imo ishora mimika yuzni pastki qismida yaxshi joylashganligi aniqlandi. Bu bemor yuzi qaysi tipga kiradi va qanday sun`iy tishlar mos keladi?

Javob:

1. Kvadrat va masseterial yuz tipi. To`g`ri burchakli kvadrat sun`iy tishlar tanlanib terilishi kerak.
2. Oval yuz tipi. Oval tishlar terilishi kerak.
3. Noksimon yuz tipi. Noksimon sun`iy tishlar bilan protez tayyorlash kerak.
4. Teskari konusli yuz tipi. Konussimon sun`iy tishlar bilan protez tayyorlash kerak.

21. Bemor K. shifokor qabuliga keldi.

Tish qatorining holati:

0	0	0	0	2	1		1	2	3	0	0	0	7	
K	I	I	K	4	3		1	2	3	4	K	I	I	K

23 | tishlar sog`lom. | 7 tishda plomba bor. SHilliq qavat och pushti rangda, patologik o`zgarishlar yo`q. Bemorga ortopedik davolanish taklif qilingan. Tashhis qo`ying! Protez tuzilmasini aniqlang?

Javob: YUqori va pastki tish qatorlarining qisman nuqsoni. Qisman olib qo`yiluvchi plastinkalik tish protezi tayyorlash zarur.

22. Bemorga qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlari tayyorlanganda, frontal tishlar sun`iy milksiz terilgan. Bunday holatda protezning mum tuzilmasi kyuvetaga qaysi usul bilan gipslanadi?

Javob: Protezning mum tuzilmasi kyuvetaga to`g`ri usul bilan gipslanadi.

23. Bemorga qisman olib qo`yiluvchi plastinkalik tish protezi moslashtirilganda (topshirishda), tayanch tishlarga ilmoq bir nuqtada tegib qolgan. Sizning harakatingiz?

Javob: Krampon yordamida ilmoqni to`g`rilashga harakat qilib ko`riladi. To`g`rilay olinmasa unda boshqatdan ilmoq (yangisi) o`rnatiladi.

24. Qisman olib qo`yiluvchi plastinkalik tish protezi polimerizatsiyadan so`ng, kyuvetadan ajratib olinganda, protezning cheti (qirrası) modelda belgilangan chegaradan kattalashgan. Sizning harakatingiz?

Javob: Qisman olib qo`yiluvchi tish protezining qirrasidan chegaradan o`tib ketgan qismlari, frez yordamida kaltalashtiriladi (chegaragacha) .

6.3. AMALIY QISM

Tish qatorlarining qisman nuqsonlarini olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlari bilan davolashda talabalarining vazifalarini bajarishi. Sun`iy tishlarni tanlash, sun`iy tishlarni terish qoidalari, mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirib ko`rish va unga ohirgi ishlov berish. Protezning mum tuzilmasini plastmassaga almashtirish.

Bazis plastmassasini tayyorlash va kyuvetaga joylashtirish. polimerizatsiya sharoiti. Plastmassa asosga aylangan protez tuzilmasiga ishlov berish va yaltiratish. Qisman olib qo`yiladigan plastinkali tish protezidan foydalanish qoidalari. Bemorni protezga ko`nikish jarayoni.

1. QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TPI TAYYORLASH BOSQICHLARI

MAQSAD:

Qisman olib qo`yiluvchi tish protezining ilmoqlarini tayyorlash bosqichlari.

QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TPI TAYYORLASH BOSQICHLARI

№	Tadbirlar	Bajara olmadi (0 ball)	To`liq to`g`ri bajardi (10 ball)
1	Modelda tayanch tishning o`lchamini aniqlab ilmoq uchun sim tanlash		
2	Simni kerakli o`lchamdan qirqib olish.		
3	Simni uch qismini yasash.		
4	Simni chap qo`lda ushlab, uning yelkasini krampon yordamida 1-chi bukish.		
5	Bukilgan ilmoqni modeldagi tishga qo`yish va holatini aniqlash		
6	Ilmoq yelkasini ikkinchi burilish qismini egish		
7	Bukilgan ilmoqni 2-chi qismini modeldagi tishga qo`yib holatini aniqlash		
8	Ilmoqni 3-chi burilish qismini egish.		
9	Bukilgan ilmoqni 3-chi qismini modeldagi tishga qo`yib holatini aniqlash		
10	Ilmoqni dum qismini sandon ustida yassilash.		
	UMUMIY	0	100

2. QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINING MUMLI TUZILMASINI BEMORDA TEKSHIRISH BOSQICHLARI

MAQSAD:

Qisman olib qo`yiluvchi tish protezining mumli tuzilmasini bemorda tekshirish bosqichlari.

QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINING MUMLI TUZILMASINI BEMORDA TEKSHIRISH BOSQICHLARI

№	Tadbirlar	Bajara olmadi «0» - ball	To`liq to`g`ri bajardi «10» - ball
1	Bemorni kresloga o`tkazish		
2	Mum plastinkasi spirtovka va shpatelni olish.		
3	Protezni mumli nushasini olib kolba ichidagi sovuq suvga solib chayish.		

4	YUqori jag` protezi mumli nushasini bemor og`ziga joylashtirish.		
5	Pastki jag` protezi mumli nushasini bemor og`ziga joylashtirish		
6	Tishlarni shakliga, rangiga e`tibor berish		
7	Bemorni markaziy okklyuziyada holatida sun`iy tishlarni jipslashishini tekshirib ko`zdan kechirish.		
8	SHpatel yordamida jipslashuvini aniqlash		
9	Protezlarini og`izdan olib sovuq suvda chayish		
10	Protezni okklyudatoridagi modellarga o`rnatish.		
UMUMIY		0	100

3. QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINING MUMLI TUZILMASIDA ILMOQLARNI JOYLASHUVINI TEKSHIRISH BOSQICHLARI

MAQSAD:

Qisman olib qo`yiluvchi tish protezining mumli tuzilmasida ilmoqlarni joylashuvini tekshirish bosqichlari.

QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINING MUMLI TUZILMASIDA ILMOQLARNI JOYLASHUVINI TEKSHIRISH BOSQICHLARI

№	Tadbirlar	Bajara olmadi «0» - ball	To`liq to`g`ri bajardi «10» - ball
1	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali protezni mumli konstruksiyasini modeldan chikarish		
2	Sovuq suvga solish		
3	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali protezni mumli nushasini bemor tish qatoriga joylash		
4	Ilmoqlarni tayanch tishlarga nisbatan joylashishini tekshirish		
5	Ilmoqlarni yelkasi ekvator sohasida joylashgan bo`lsa uni to`g`rilash		
6	To`g`rilangan ilmoqlarni mum bilan mahkamlash		
7	Protezni sovuq suvda chayish.		
8	Protezni bemor ogziga kiritish		
9	Protez ilmoqlarini tayanch tishlar sohasidagi turishini yana tekshirib ko`rish		

10	Protezni bemor og`zidan chiqarib modelga joylashtirish.		
	UMUMIY	0	100

4. MUM ASOSLI PROTEZ TUZILMASINI KYUVETAGA JOYLASHTIRISH BOSQICHLARI

MAQSAD:

Mum asosli protez tuzilmasini kyuvetaga joylashtirish bosqichlari.

MUM ASOSLI PROTEZ TUZILMASINI KYUVETAGA JOYLASHTIRISH BOSQICHLARI

№	Tadbirlar	Bajara olmadi «0» - ball	To`liq to`g`ri bajardi «10» - ball
1	Kyuvetaning qisimlarini ochish va ochib tayyorlashni		
2	Kyuvetaning yuqori qismini gips bilan to`ldirish va protezni joylashtirishni.		
3	Mum asosli protezni model qismigacha gips bilan to`ldirishni.		
4	Gips qotgach, ustki qismi, (kyuvetaning) yopiladi va gips bilan to`ldirilishni.		
5	Kyuvetani qopqoqlari yopilib 3-5 daqiqa bosim ostida ushlab turilishini.		
6	Kyuvetani 2-3 daqiqa qaynok suvga solib olinadi.		
7	Kyuvetani qopqoqlari ochilib, ichidagi mum, qaynoq suv bilan yuviladi.		
8	Kyuvetadagi gips sovimasdan, unga ajratuvchi lak surtiladi (Izokol)		
9	Bazis plastmassasini tayyorlash		
10	Kyuveta ichidagi protez o`rniga plastmassani joylashtirish, yopish va byugelga o`rnatib polimerizatsiya olib borish.		
	UMUMIY	0	100

5. QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINI PARDOZLASH BOSQICHI

MAQSAD: qisman olib qo`yiluvchi tish protezini pardoqlash bosqichi

QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINI PARDOZLASH BOSQICHI

№	Tadbirlar	Bajara olmadi «0» - ball	To`liq to`g`ri bajardi «10» - ball
1	Protezni ko`zdan kechirib, uning qalinligini tekshirish		
2	Protezni polirovka darajasini tekshirish		
3	Ilmoqlarni uch qismlarini tekshirish		
4	Sun`iy tishlarni sifatiga e`tibor berish		
5	Protezni chegara qismlarini tekshirish		
6	Protezni lab-til yuganchalariga bo`lgan holatini tekshirish		
7	Protezni harakatchan hosilalariga bo`lgan holatini aniqlash		
8	O`tkir qirralarni bartaraf qilish		
9	Protez asosidagi ayrim kovaklarni tez qotuvchi plast-massa bilan to`ldirish		
10			
	UMUMIY	0	100

6. QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINI BEMORGA TOPSHIRISH BOSQICHI

MAQSAD: qisman olib qo`yiluvchi tish protezini bemorga topshirish bosqichi

QISMAN OLIB QO`YILUVCHI TISH PROTEZINI BEMORGA TOPSHIRISH BOSQICHI

№	Tadbirlar	Bajara olmadi «0» - ball	To`liq to`g`ri bajardi «10» - ball
1	Bemorni kresloga o`tkazish		
2	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali protezni suv va spirt bilan artish		
3	Qisman olib qo`yiluvchi protezni og`izga kirib joylashishiga to`squinlik qiluvchi joylarni qora qog`oz yordamida aniqlab bartaraf qilish.		
4	Qisman olib qo`yiluvchi protezni og`izga kiritib joy-		

	lashtirish		
5	Qisman olib qo'yiluvchi protezni ilmoqlarini tayanch tishlarda joylashib turishiga ahamiyat berish		
6	Qisman olib qo'yiluvchi plastinkani protezni M.O. holatida jipslashuvda e'tibor berish		
7	Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali protezdagi sun'iy tishlarni oldinroq tegadigan nuqtalarini qora qog'oz bilan aniqlab bartaraf qilish		
8	Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali protezni chegaralariga e'tibor berish		
9	Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali protezni bemorga topshirish		
10	Maslahat berish		
	UMUMIY	0	15

7. QISMAN OLIB QO'YILUVCHI PROTEZINI TOPSHIRISH BOSQICHLARI

MAQSAD: qisman olib qo'yiluvchi protezlarni topshirish bosqichlari.

QISMAN OLIB QO'YILUVCHI PROTEZLARNI TOPSHIRISH BOSQICHLARI

№	Tadbirlar	Bajara olmadi «0» - ball	To'liq to'g'ri bajardi «10» - ball
1	Bemorni kresloga o'tkazish		
2	Protezni suv, spirt bilan artish		
3	Protezni qirralariga, polirovkasiga e'tibor berish		
4	Protezni bemor og'ziga kiritish		
5	Sun'iy tishlar rangiga, shakliga e'tibor berish		
6	Protezni chegaralariga e'tibor berish		
7	Protezni M.O. holatida jipslashuviga e'tibor berish		
8	Okklyuzion jipslashuv nuqtalarini qora qog'ozda aniqlash		
9	Protez fiksatsiyasi va stabilizatsiyasini tekshirib ko'rish.		
10	Bemorga protezdan foydalanishda maslahat berish.		
	UMUMIY	0	100

8. PROTEZ STOMATITLARINI BEMORDA ANIQLASH

MAQSAD: protez stomatitlarini bemorda aniqlash bosqichlarini o`rganish.

PROTEZ STOMATITLARINI BEMORDA ANIQLASH BOSQICHLARINI O`RGANISH

№	Bajariladigan ish bosqichlari	Bajara olmadi «0» - ball	To`liq to`g`ri bajardi «10» - ball
1	Bemorni kresloga o`tkazish	0	
2	Og`iz bo`shlig`ini tekshirish uchun asboblari, idish oling		
3	Bemordan protezni yechishni so`rang. Stomatologik oyna bilan protez maydonini tekshiring		
4	Ko`ruvda shilliq qavatning rangiga, butunligiga ahamiyat bering		
5	Qattiq tanglay holatini tekshiring		
6	Lunj sohadagi shilliq qavatda dog`lar borligini aniqlang	0	
7	SHilliq qavatda tishning o`rni bor – yo`qligini tekshiring	0	
8	Protez chegarasidagi shilliq qavat holatini aniqlang		
9	Protez maydonidagi shilliq qavat qizarishini, shishni aniqlang	0	
10	Tilning rangini, katta-kichikligini, aniqlang.		
	UMUMIY	0	100

9. OLIB QO`YILUVCHI PLASTINKALI TISH PROTEZLARINING ICHKI YUZASINI QAYTA TIKLASH (PEREBAZIROVKA)

MAQSAD: olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarining ichki yuzasini qayta tiklash (perebazirovka) (bir bosqichda) usulini ko`rish.

OLIB QO`YILUVCHI PLASTINKALI TISH PROTEZLARNI ICHKI YUZASINI QAYTA TIKLASH (PEREBAZIROVKA) (BIR BOSQICHDA) USULINI KO`RISH

№	Bajariladigan ish bosqichlari	Bajara olmadi «0» - ball	To`liq to`g`ri bajardi «10» - ball
1	Bemorni kresloga o`tkazish	0	

2	Protezning ichki yuzasidan 1-1,5 mm, qirrasidan 1,5 mm.frez yordamida olish		
3	Tez qotuvchi «Protakril» «Redont» plastmassasini tayyorlash.		
4	Tayyor bo`lgan tez qotuvchi plastmassasini protezning ichki yuzasiga joylashtirish		
5	Protezni bemor og`ziga taqib, bir necha funksional sinamalar o`tkazish		
6	Protezni og`izdan chiqarib olishni va og`izni sodali suv bilan chayqash	0	
7	Protezni qayta og`izga taqishni va 2-3 daqiqadan so`ng yana yechib olish	0	
8	Protezni ilik suvda to`liq qotguncha ushlab turish		
9	Protezga qayta ishlov berish	0	
10	Protezni laboratoriyada vestibulyar yuzasini yaltiratish va bemorga topshirish.		
Jami		0	100

7. MALAKA, KO`NIKMA VA BILIMNI TEKSHIRISH USULLARI

- OG`ZAKI;
- YOZMA
- VAZIYATLI MASALA;
- O`ZLASHTIRILGAN AMALIY KO`NIKMALARNI
NAMOIYISH QILISH

8. JORIY BAHOLASHNI BAHOLASH MEZONI

O`zlash -tirish %	Baho %	Talabaning bilim darajasi
96- 100%	A`lo «5»	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun`iy tishlarning turlarini ularga qo`yiladigan talablarni, tanlay olishni va terishni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish va uchrashi mumkin bo`lgan hato kamchiliklarni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga almashtirish laborator bosqichlarini bilish. Tayyor bo`lgan tish proteziga baho bera olish, mustaqil xulosa

		va qaror qabul qilish ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yuritish. Vaziyatli masalalarni to`g`ri va ijodiy yechish, javoblarni to`liq asoslab berish. Interaktiv o`yinlarda faol va ijodiy qatnashish va ularni yechishda ijobiy hulosalar va tahlil qilish. Tayyor bo`lgan olib qo`yiluvchi tish protezlarini bemorga topshirish qoidalarini bilish. Bemorlarni qisman olib qo`yiluvchi tish protezlariga ko`nikish jarayonidagi klinik holatlarni bilish. Bunday protezlardan foydalanish qoidalarini bilish. Mavzu bo`yicha savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ishonch bilan aytib beradi va aniq tasavvurga ega. ijodiy fikrlay oladi. Hulosa va qaror qabul qila oladi, amalda qo`llay oladi.
91-95%	A'lo «5»	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlarning turlarini, ularga qo`yiladigan talablarni, tanlay olish va terish qoidalarini bilish. Mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish va uchrashi mumkin bo`lgan hato kamchiliklarni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga almashtirish laborator bosqichlarini bilish. Tayyor bo`lgan tish proteziga baho bera olish. Mavzu bo`yicha ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yuritish. Vaziyatli masalalarni to`g`ri va ijodiy yechish, javoblarni to`liq asoslab berish. Interaktiv o`yinlarda faol va ijodiy qatnashish va ularni yechishda ijobiy hulosalar va tahlil qilish. Tayyor bo`lgan olib qo`yiluvchi tish protezlarini bemorga topshirish qoidalarini bilish. Bemorlarni qisman olib qo`yiluvchi tish protezlariga ko`nikish jarayonidagi klinik holatlarni bilish. Bunday protezlardan foydalanish qoidalarini bilish. Savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ishonch bilan aytib beradi va aniq tasavvurga ega. Ijodiy fikrlay oladi amalda qo`llay oladi.
86-90%	A'lo «5»	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlarning turlarini, ularga bo`lgan talablarni, tanlay olish va terishni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish va uchrashi mumkin bo`lgan hato kamchiliklarni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga almashtirish laborator bosqichlarini bilish. Tayyor bo`lgan tish proteziga baho bera olish. Mustaqil mushohada yuritish. Vaziyatli masalalarni to`g`ri va ijodiy yechish, javoblarni to`liq asoslab berish. Interaktiv o`yinlarda faol va ijodiy katnashish va ularni yechishda ijobiy hulosalar va tahlil qilish. Tayyor bo`lgan olib qo`yiluvchi tish protezlarini bemorga

		topshirish qoidalarini bilish. Bemorlarni tish protezlariga ko`nikish jarayonidagi klinik holatlarni bilish. Bunday protezlardan foydalanish qoidalarini bilish. Savollar mohiyatini tushunadi, biladi, qiynalib aytib beradi va aniq tasavvurga ega. Amalda qo`llay oladi.
81-85%	YAhshi «4»	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun`iy tishlarning turlarini, ularga bo`lgan talablarni, tanlay olish va terishni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish va uchrashi mumkin bo`lgan hatto kamchiliklarni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga almashtirish laborator bosqichlarini bilish. Tayyor bo`lgan tish proteziga baho bera olish. Vaziyatli masalalarni to`g`ri va ijodiy yechish, javoblarni to`liq asoslab berish. Interaktiv o`yinlarda faol va ijodiy qatnashish va ularni yechishda ijobiy hulosalar va tahlil qilish. Tayyor bo`lgan tish protezlarini bemorga topshirish qoidalarini bilish. Bemorlarni tish protezlariga ko`nikish jarayonidagi klinik holatlarni bilish. Savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ishonch bilan aytib Bera olmaydi.
76-80%	YAhshi	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun`iy tishlarning turlarini, ularga bo`lgan talablarni, tanlay olish va terishni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish va uchrashi mumkin bo`lgan hatto kamchiliklarni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga almashtirish laborator bosqichlarini bilish. Tayyor bo`lgan tish proteziga baho bera olish. Vaziyatli masalalarni to`g`ri va ijodiy yechish, javoblarni to`liq asoslab berishda bir qancha hatoliklarga yo`l qo`yish. Interaktiv o`yinlarda faol va ijodiy qatnashish va ularni yechishda ijobiy hulosalar va tahlil qilish. Protezlarini bemorga topshirish qoidalarini bilish. Bemorlarni tish protezlariga ko`nikish jarayonidagi klinik holatlarni bilish. Mavzu bo`yicha savollar mohiyatini tushunadi lekin, qiynaladi. Amalda qo`llashda hatoliklarga yo`l qo`yadi.
71-75%	YAhshi	Qisman olib qo`yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun`iy tishlarning turlarini, ularga bo`lgan talablarni, tanlay olish va terishni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga almashtirish laborator bosqichlarini o`zlashtirishda hatoliklarga yo`l qo`yishlik. Tayyor bo`lgan tish proteziga baho berishda noaniqliklarga yo`l qo`yish. Tish

		protezlarini bemorga topshirish qoidalarini bilishda hatoliklarga yoʻl qoʻyish. Bemorlarni tish protezlariga koʻnikish jarayonidagi klinik holatlarni bilish. Mavzu boʻyicha savollar toʻgʻri, lekin toʻliq yoritilmasligi. Vaziyatli masalalarga toʻliik javob berishlik, savollar mohiyatini biladi, lekin aniq tasavvurga ega emas.
66-70%	66-70 konikarl i	Qisman olib qoʻyiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sunʼiy tishlarning turlarini, ularga boʻlgan talablarni, tanlay olish va terishni bilish. Mum asosli protez tuzilmasini bemorda tekshirish asoslarini bilish. Uchrashi mumkin boʻlgan hato va kamchiliklarni bilish. Protez tayyorlashning laborator bosqichlarini oʻzlashtirmaslik. Tayyor protezlarga baho berishda hatoliklarga yoʻl qoʻyish. Tish protezlariga koʻnikish jarayonidagi klinik holatlarni bilishda adashish. Berilgan savollarning koʻpchiligini hatolarga yoʻl qoʻyilgan holda yoritish. Fakat baʼzi savollar boʻyicha mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega boʻlish. Vaziyatli masalalarni toʻgʻri yecha biladi, lekin javobni isbotlay olmaydi.
61-65%	konikarl i	Qisman olib qoʻyiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sunʼiy tishlarning turlarini, ularga boʻlgan talablarni, tanlay olish va terishni bilishda hatoga yoʻl qoʻyilishi. Faqat baʼzi savollar boʻyicha mohiyatini tushinishi javobi toʻliq emas. Protezning mum tuzilmasini tekshirish asoslarini bilishda qiynalishi.mavzu boʻyicha laborator bosqichlarni bajarishda noaniqliklarga yoʻl qoʻyishi. Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga aylantirish bosqichlarini bilishda yanglishish. Vaziyatli masalalarni yechimida hatoliklarga yoʻl qoʻyish. Savolni biladi, ishonch bilan aytib bera olmaydi. Mavzuning alohida savollari yuzasidan aniq tasavvurga ega.
55-60%	konikarl i	Qisman olib qoʻyiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sunʼiy tishlarning turlarini, ularga boʻlgan talablarni, tanlay olish va terishni bilishda qiynaladi. Protez tuzilmalarining laborator bosqichlarini oʻzlashtirishda, protezlarni baholashda hato va kamchiliklarni aniqlashda hatoliklarga yoʻl qoʻyilgan holda yoritish. Vaziyatli masalalarni yechishda hatoliklarga yoʻl qoʻyish. Protez topshirishdagi klinik holatlarni biladi, lekin ishonch bilan aytib bera olmaydi.

		Bunday protezlardan foydalanish qoidalarini bilish bo'yicha qisman tasavvurga ega.
50-54% va undan past	konikars iz	Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlar to'g'risida kam tasavvurga ega. Protezning mum tuzilmalarini tekshirish, hato va kamchiliklarni aniqlashni juda kam bilish. Vaziyatli masalalarni noto'g'ri yechish. Protezlarni bemorga topshirish qoidalarini bilishda, klinik holatlarni aniqlashda, foydalanish qoidalarini bilishda hech qanday tasavvurga ega emas. Mavzu bo'yicha savollar mohiyatini bilmaydi.
46-49	konikars iz	Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezlarida ishlatiladigan sun'iy tishlar to'g'risida, protezlarning mumli tuzilmasi hakida laborator va klinik mezonlarini aniqlash va bilish to'g'risida hech qanday tasavvurga ega emas. Mavzu bo'yicha savollar mohiyatini umuman bilmaydi.

9. MASHG'ULOTNING HRONOLOGIK HARITASI

№	Mashg'ulot bosqichlari	Mashg'ulot shakli	Davomiy ligi (daqqa 270)
1	O'qituvchining kirish so'zi (mavzuni asoslash)		5 ¹
2	Uyga berilgan topshiriqlarni muhokama qilish	So'rovnomalarni tushun-tirish	30 ¹
3	Bemorlarni qabul qilish va ko'rikdan utkazish	Bemor ko'rigi	60 ¹
4	Amaliy kunikmalarni takomillashtirish, mulyajlar, klinik-laborator anjomlar, apparatlar bilan ishlash.	SHifokor honasi stomatologik kurulma. Protezlash laboratoriya-si. Fantom.	60 ¹
5	Mashg'ulotning amaliy qismi bo'yicha muhokama	So'rovnomalarni tushun-tirish.	15 ¹
6	Mashg'ulot mavzusini muhokama qilish - referativ ahborot, seminar, bahs munozara	Fantom ko'rgazmalari. Seminar. Bahs munozara	45 ¹

7	Guruhdagi dars mavzusi bo'yicha videokassetalar, disklar DVD namoyish qilish, vaziyat masalalarini muhokama qilish, kompyuterli dasturlar, ishbilarmon o'yinlar va h.h.	Televizor, DVD, disk-lar, kasseta-lar. Kompyuter. Interaktiv namoyish qilish.	45 ¹
8	Mashg'ulot bo'yicha o'qituvchining hulosasi. Har bir talabani 100-ballik tizim bo'yicha baholash va e'lon qilish. Keyingi darsga tayyorlanish uchun talabalarga vazifa berish (savollar to'plami)	Ahborot, mustaqil tayyorlanish uchun savollar.	10 ¹

10. NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

- Olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarga qanday sun'iy tishlar ishlatiladi?
- Sun'iy tishlar shakliga ko'ra necha hil ko'rinishda bo'ladilar?
- Sun'iy tishlarga qanday talablar qo'yiladi?
- Sun'iy tishlar bemorga qanday mezonlar asosida tanlaniladi?
- YUqori va pastki jag'da sun'iy tishlar alveolyar cho'qqisiga nisbatan qanday teriladi.
- Mum asosli, olib qo'yiladigan, plastinkali protez tuzilmasini modelda qanday tekshiriladi?
- Olib qo'yiladigan, plastinkali mum asosli protezni bemorda tekshirish bosqichlari qanday?
- Bemorda mum asosli protez tuzilmasini tekshirishda qanday hatoliklarni aniqlash mumkin? Ularni bartaraf qilish yo'llari qanday?
- Markaziy jipslashuvni aniqlashdagi hatoliklar qanday aniqlaniladi?
- Prikus balandligini aniqlashdagi hatoliklar qanday aniqlaniladi?
- Protezning mumli asosiga yakuniy shakl berish nimalardan iborat?
- Mum asosli protez tuzilmasini kyuvetaga necha hil usul bilan gipslanadi?
- Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga almashtirish qanday bosqichlardan iborat bo'ladi?
- Mum asosli protez tuzilmasini plastmassaga aylantirishda qanday bazis plastmassalari ishlatiladi?
- Bazis plastmassalarni qanday termik sharoitda polimerizatsiya olib boriladi?
- Bazis plastmassalarini noto'g'ri termik sharoitda polimerizatsiya kilin-ganda qanday asoratlari kelib chiqadi?
- Plastmassa «hamirini» tayyorlash qoidalari qanday bosqichlardan iborat?
- Kyuvetadan ajratib olingan plastmassa asosli protezni tozalash, ishlov berish, silliqlash va yaltiratish qanday va nimalar yordamida olib boriladi.
- Tayyor bo'lgan protezning sifatiga qanday baho beriladi?

20. Tayyor bo'lgan protezni bemorga taqish qanday amalga oshiriladi?
21. Protez taqilgandan so'ng, markaziy okklyuziya (jipslashuv) holatining to'g'riligini qanday belgilarga asoslanib aniqlaymiz?
22. Protez tuzilmasidagi ilmoqlar tayanch tishning ekvatoriga nisbatan qanday joylashadi?
23. Protezning fiksatsiyasini qanday holatiga qarab aniqlaniladi?
24. Protezning stabilizatsiyasi qanday aniqlaniladi?
25. Qisman olib qo'yiluvchi plastinali tish protezini bemorga topshirilgandan so'ng uning sifatini klinik jihatidan qanday baholaniladi?
26. Olib qo'yiladigan tish protezlaridan foydalanish qoidalarini qanday?
27. Bemorlarni olib qo'yiladigan tish protezlariga ko'nikish jarayoni qanday bosqichlardan iborat.
28. Bunday protezlarga ko'nikishning birinchi davri qanday boshlanadi va nima deb nomlanadi?
29. Olib qo'yiluvchi protezlarga ko'nikishning ikkinchi davri qanday nomlanadi va qanday davom etadi?
30. Olib qo'yiluvchi tish protezlariga ko'nikishning uchinchi davri qanday nomlanadi va kechadi?
31. Bemorga qisman olib qo'yiluvchi tish protezlari topshirilgandan so'ng qanday hato va kamchiliklar aniqlanilishi mumkin?
32. Bemor qisman olib qo'yiluvchi tish protezlarini taqib yurish jarayonida, qanday holatlarda korreksiya qilinadi?
33. Qisman olib qo'yiluvchi tish protezlarini korreksiya qilish qanday obraziv ashyolar yordamida olib boriladi?
34. Qisman olib qo'yiluvchi tish protezlarida ikki qavatli asos qanday hollarda qo'llaniladi.
35. Olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarini ulash (yamash) va ichki yuzasini qayta tiklash (perebazirovka) qanday bosqichlarda olib boriladi.

ADABIYOTLAR

1. Ma'ro'za matnlari
2. Bushan M.G., Kalamkarov H.A. "Oslojneniya pri zubnoy protezirovanii i ih profilaktika". Moskva. 2000 g.
3. Juleev YE.I. «Nes'emnye protezy», «Teoriya, klinika i laboratoriya tekhniki». N. Noagorod. 2000 g.
4. Kopeykin V.I. «Rukovodstvo po ortopedicheskoy stomatologii». 1998 g.
5. Miryokubov M. «Ortopedik stomatologiya». Toshkent 2000 y.
6. Sherbakov A.S., Trezubov YE.I., Gavrilov YE.I., Juleev YE.I. «Ortopedicheskaya stomatologiya» 2001.
7. Pod redaktsiyey V.N. Kopeykin, M.Z. Mirgazizova. ortopedicheskaya stomatologi; Moskva – 2001 g.
8. Kopeykin V.N. «Rukovodstva po ortopedicheskoy stomatologii». Moskva – 2004 g.

9.S.S. A'zamxo'jaev, F.T. Raxmatullaev, O.A. Shukurov. «Yoysimon tish protezlari».

10. X.I. Irsaliev, N.L. Xabilov, M.T. Safarov, F.T. Rahmatullaev. «Ortopedik stomalogiya propedevtikasi». Toshkent – 2006.

11. INERNET.